

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 809.51-1/-8

BBK:81.2-5(5 kit)

I-73

Irgasheva Umida Asqarjon qizi

**XITOIY TILIDA QURILISH VA ME’MORCHILIK BILAN
BOG‘LIQ ATAMALARNING LEKSIK – SEMANTIK VA
GRAMMATIK TAHLILI**

5A 5120102 – Lingvistika (xitoy tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Ziyamammedov J.**

Toshkent– 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Hozirgi zamon tilshunosligida xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamalari o'rganilishining ilmiy – nazariy asoslari	
1.1. “Atama ” tushunchasining olimlar tomonidan tahlil etilishi.....	10
1.2. Tilshunoslikda atamashunoslikka oid ishlar tahlili.....	16
1.3. O‘zbek tilshunoslarining atamashunoslikka oid ishlari tahlili.....	20
1- bob bo‘yicha xulosalar.....	24
II bob. Xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamalaridagi semantik o'zgarishlar tahlili	
2.1. Xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamalarining tarixi.....	26
2.2. Atamalarning ekstralingvistik omillarga ko‘ra guruhlariga ajratilishi.....	41
2.3. Atamalarning asl lingvistik omillarga ko‘ra guruhlariga ajratilish tahlili.....	45
2 - bob bo‘yicha xulosalar.....	50
III bob. Xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik atamalarining morfologik tahlili	
3.1. Xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik atamalarining N+N model orqali yasaliş usullari tahlili.....	52
3.2. Xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik atamalarining A+N va V+N modellari orqali yasaliş usullari tahlili.....	59
3 - bob bo‘yicha xulosalar.....	68
Xulosa.....	69
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	72
Ilova.....	77

KIRISH

“Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. ...Jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”¹.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardan oq ta’lim tizimida yangidan yangi o‘zgarishlar bo‘lishi, jumladan, ilm olish va ta’lim berishdagi interfaol usullarni keng yo‘lga qo‘yish, yoshlarning ilm salohiyatini yanada yuksaltirish, tarbiya sohasidagi islohotlarni jadallashtirish kabi ulkan rejalar maqsad qilib qo‘yildi. Chunki, ta’lim – tarbiya nafaqat shaxsning moddiy va ma’naviy tayanchi, balki Vatan taraqqiyotining poydevori hamdir. Binobarin, ta’lim – tarbiya ongning mahsulidir, ongni, tafakkurni o‘zgartirmay turib esa biz ko‘zlagan oliy maqsadimiz – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo eta olmaymiz. Bunda asosan o‘z kelayotgan yosh avlodning hissasi beqiyos. Shunday ekan, biz yoshlarning Vatanimiz kelajagi oldida mas’uliyatimiz katta. Biz yoshlar avvalo chuqur bilim egallab, o‘z kasbimizning yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishimiz lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotiga va boshqa xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lib kirishi O‘zbekistonga o‘zining tashqi siyosatini mustaqil ravishda yuritish, jahon hamjamiyatiga a’zo bo‘lishining o‘z strategiyasini ishlab chiqish, davlatlararo munosabatlarning yo‘nalishlari va ustuvorligini belgilash imkonini berdi. “O‘zbekiston Xitoy timsolida mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridan bizni qo‘llab – quvvatlab kelayotgan ishonchli, buyuk qo‘shni va hamkorni ko‘radi”². Mamlakatimizning Xitoy Xalq Respublikasi bilan 1992 – yilning 2 – yanvaridan bugungi kungacha hamkorlik munosabatlari samarali rivojlanib kelmoqda. Ushbu do‘stona munosabatlar tufayli savdo va iqtisodiy sohalarda bitimlar imzolandi. Zarur

¹Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.: “Шарқ” нашриёти, 1997. – 185 б.

²Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.№ 14 – Т.: “Шарқ”, 2006. – 242б.

resurslarni, xalq iste'moli mollarini yetkazib berishdan tortib, mehmonxonalar qurish, sog'liqni saqlash, dori – darmonlar ishlab chiqarish, noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish sohasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilishgacha keng ko'lamdagi siyosiy, diplomatik va madaniyat sohalarida ham jiddiy o'zaro manfaatlarning mavjudligi, shu munosabatlarni chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda. Hozirgi kunda ana shu omillar xitoy tilini O'zbekiston hududida keng ko'lamda o'rganilishni taqozo etmoqda.

Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi xitoy tilida qurilish va me'morchilik bilan bog'liq atamalarning leksik-semantik va grammatik tahliliga bag'ishlangan. Ilmiy izlanish struktural paradigmaga asoslangan. Dissertatsiyada xitoy tiliga xos bo'lgan qadimgi, lekin hozirda qo'llanilish doirasini yo'qotmagan qurilish va me'morchilik atamalarining tahlili ko'rib chiqiladi.

Me'morchilik sohasiga xitoyliklarning fenshui falsafasi asta sekinlik bilan kirib kelmoqda, ya'ni, yangi zamonaviy binolarni qurishda, xususiy uylarning dekoratsiyalarini binoning qaysi tomonga qaratib qurilishi, oyna va eshiklarning qaysi tomonga qarab ochilishi kabi elementlar me'morchilik, bino qurilishi masalasida birlamchi omillardan biriga aylanmoqda, shu sababli xitoyliklarning me'morchilik sohasining kelib chiqishi, o'ziga xos xususiyatlari, me'morchilik ishlari bilan bog'liq diniy, ijtimoiy – siyosiy qarashlarning, umuman xitoy me'morchilik sohasi atamashunosligida ushbu dunyoqarashning, milliy urf – odatlarning aks ettirilishi masalasi tahlili ikki xalq me'morchilik sohasidagi umumiy va farqli tomonlarni anglab yetishimizda, xitoy urf – odatlariga ko'r – ko'rona ravishda taqlid qilishlarni oldini olishda, Sharq mamlakatlarining me'morchilik an'analarini xitoy va o'zbek ustalarining ishlarida aks ettirilishi, shu ikki xalqni birlashtiruvchi yagona negiz mavjudligini anglab yetishda va me'morchilik atamalarini o'zlashtirish orqali xalqning falsafiy dunyoqarashiga, uning milliy ruhiyatiga chuqurroq kirib borishimizda katta amaliy ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, hozirgi zamon lingvistika sohasida aynan atamalar tadqiqiga

bag'ishlangan ilmiy ishlar juda ko'p bo'lib, ushbu ishlarda turli soha atamolari etimologiyasi, rivojlanishi, evolutsion rivojlanish bosqichlari, diaxronik, sinxronik, struktur, leksik-semantik va boshqa tahlillari o'rganilgan. Qurilish va me'morchilik atamalarining tahliliga, ushbu soha bo'yicha xitoy tilidagi atamalarining leksik – semantik va grammatik tahliliga bag'ishlangan ishlar deyarli yo'q. Ushbu dissertatsiya ishining dolzarbligi aynan xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik bilan bog'liq atamalarining leksik – semantik va grammatik tahlillari, morfologik xususiyatlari, atamalarni tizimlashtirish va tematik guruhlarga ajratilishini o'rganib chiqilishidadir.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Mazkur magistrlik dissertatsiyasining obyekti – xitoy tiliga xos bo'lgan qadimgi, lekin hozir ham qo'llanilish doirasini yo'qotmagan qurilish va me'morchilik atamolari, **predmeti** – xitoy tiliga xos bo'lgan qadimgi, lekin hozir ham qo'llanilish doirasini yo'qotmagan qurilish va me'morchilik atamalarining leksik – semantik va grammatik tahlili hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamalarini alohida lingvistik tizim sifatida aniqlash, ularning leksik – semantik, grammatik tahlili ya'ni yasalish usullari orqali qay so'z turkumiga oidligini aniqlash maqsadida, quyidagi vazifalarni oldimizga qo'ydik:

- Mavzuning o'rganilganlik darajasini yoritib berish;
- xitoy tiliga xos bo'lgan qurilish va me'morchilik atamolari tematik guruhini aniqlash;
- ushbu soha atamalarini leksik – semantik jihatdan tahlil qilish;
- ish doirasidagi atamalarni struktur jihatlarini, morfologik xususiyatlarini o'rganish va ularni guruhlarga ajratishdan iborat.

Ilmiy yangiligi. Xitoy tiliga xos bo'lgan qurilish va me'morchilik atamalarining o'zbek tilidagi muqobil variantlari shakllantirildi. Atamalarining tematik guruhi ekstralingvistik va asl lingvistik omillarga binoan tahlillar natijasida ko'rsatib berildi, ma'no jihatdan atamalarining o'zgarganlik va o'zgarmaganlik holatlari ochib berildi, ya'ni, me'morchilik atamalaridagi *ma'no torayishi, kengayishi, ko'payishi, ma'noni asl holatda saqlab qolishi va ma'noni*

umuman o'zgarishi kabi xususiyatlari aniqlandi. Grammatik jihatdan esa, atamalarining aksariyati ot, qolganlari esa sifat so'z turkumiga oidligi o'rganildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiyasi ish doirasiga kiritilgan barcha atamalar leksik – semantik jihatdan tahlil qilinganda, atamalar ekstralingvistik omillarga ko'ra o'zaro tematik jihatdan alohida – alohida guruhlariga bo'linib ketadi. Guruhlar o'z ichida yana kichik guruhchalarga bo'linadi. Asl lingvistik omillarga ko'ra esa, ma'no jihatdan atamalarining ma'no torayishi, kengayishi, ko'payishi, ma'noni asl holatda saqlab qolishi va ma'noni umuman o'zgarganlik holatiga ko'ra yana turli xil guruhlariga ajraladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Hozirda tilshunoslikda atamalar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlar anchagina. Shunday bo'lsada, aynan xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik atamalarining tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlar deyarli yo'q. Lekin shu o'rinda, boshqa soha atamalarining tahliliga bag'ishlangan qator o'zbek, xitoy, rus hamda g'arb tilshunoslarining ishlari mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Rus tilshunos olimlaridan O.P. Frolova, A.V. Superanskaya, E.D. Polivanov, V.M. Solnsev, A.A. Xamatova, V.P. Danilenko, A.A. Reformatskiyning ³, xitoy tilshunoslaridan Vang Li, Chjou Yuguan, Lu Chjivey, Chjan Shoukanning ⁴ ilmiy ishlari nafaqat tilshunoslikda so'z yasalishi muammolarini o'rganilishiga, balki turli soha atamalarining tahlil qilinish muammolarining o'rganilishiga ham salmoqli hissa qo'shgan.

O'zbek tilshunoslari A.A. Karimov, S.A. Nosirova, X.A. Dadabayev, I.X. Pardayeva, H.E. Yodgorov va boshqalarning turli soha atamalari tahliliga

³ Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка.- Новосибирск: «Наука», 1981.- 130 б.; Суперанская А.В. Общая терминология: вопросы теории.- М.: «Наука», 1989. – 235 б.; Иванов А.И., Поливанов Е.Д. Грамматика современного китайского языка. М.: 1930. с. 7.; Солнцев В.М. Проблема слова в китайском языке. Канд. дис. - М.: 1953; Он же. Проблема частей речи в китайском языке. – ВЯ, 1956, № 5; Он же. Очерки по современному китайскому языку. М.: 1957.; Даниленко В.П. Русская терминология (опыт лингвистического описания).- М.:Наука, 1977.- 187 б.; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. - М., 1959.- 453 б.

⁴周有光。汉字改革概论。北京，1964 年。；鲁志韦。汉语的构词法。北京，1957 年，160 页。；张寿康。关于汉语构词法 // 语法和语法教学。北京，1956 年，90-113 页；张寿康。构词法说略。现代汉语讲座。北京，1983，89-105 页。

bag'ishlangan ishlari ham e'tiborga loyiqdir⁵.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Mazkur dissertatsiya ishi paradigmasi strukturalizm bo'lib, ishda atamalar tahlili quyidagi metod orqali tahlil qilindi: semantik tahlil metodi – u yoki bu til (og'zaki nutq, matn) elementlarini ish doirasidagi matn yoki umuman butun asarda ma'no – mazmun jihatlarini tahlil qilish hamda fikrning ichki va tashqi qismlari o'rtasidagi o'ziga xos jihatlarini aniqlash bilan bog'liq tahlildir. Ya'ni leksik birliklarning semantik tahlili leksika – semantika yoki semasiologiyaning o'rganilish predmeti bo'lib, biror bir so'zning u ifodalayotgan ma'no (signifikat) hamda nutqdagi obyekt (denotat) bilan bog'liqligini tadqiq etadi. Bunda asosiy e'tibor, leksik birliklarning ma'no – mazmun jihatdan guruhlarga bo'linishi, qaysi holatga ko'ra so'zlarning ma'nosi kengayishi yoki chegaralanishi, so'zlarning leksik ma'nosini yo'qotib, grammatik formantlarga aylanishi (desemantizatsiya) ga katta e'tibor qaratiladi⁶.

Undan tashqari, tilshunoslikda keng qo'llaniladigan statistik, tavsifiy, tahliliy, miqdoriy, qiyosiy, solishtiruv va tarjima metodlaridan ham foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Nazariy ahamiyati shundan iboratki, ushbu dissertatsiya ishida ilk marotaba xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik bilan bog'liq atamalar leksik – semantik va grammatik jihatdan tahlilga tortildi. Leksik – semantik tahlil orqali atamalar tizimlashtirildi, guruhlarga ajratish masalalari o'rganildi. Grammatik jihatdan, qurilish va me'morchilik atamalarining morfologik xususiyatlari yoritib berildi.

Amaliy tomondan qaraydigan bo'lsak, tanlangan mavzu ishlab chiqarish va qurilish sohasi bilan bevosita bog'liq soha bo'lib, ma'lumki, vatanimiz hududiga

⁵ Каримов А.А. Хитой тилидаги хисоб сўзлар. Тошкент. “Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси”. 2003; Носирова С.А. Ҳозирги замон хитой тили дипломатик атамаларнинг лексик-семантик ва структурал таҳлили : Филол. фан. номз. дис.Т., 2007. – 192 б.; ⁵ Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV в.в.: док. дисс. филол. наук. автореф. – Т., 1992.– 55с.; Пардаева И.Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фан. номз. дис. Т., 1994. – 128 б.; Ёдгоров Х.Э. Ўзбек тили харбий терминологиясининг синхроник тадқиқи: Филол. фан. номз. дис. Т., 1996. – 190 б.

⁶ Ярцева В.Н. Языкознание. Большой энциклопедический словарь 1998г. 259,596стр.; Жеребило Т.В. Термины и понятия лингвистики: Лексика. Лексикология. Фразеология. Лексикография: Словарь-справочник. – Назрань. 2011г. 4-5стр.

XXRdan qurilish asbob uskunalarini, me'morchilikda ko'p qo'llaniladigan materiallarni import qilinishi kun sayin jadallashmoqda. Bu o'z navbatida ikki davlat o'rtasida do'stlik, hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlanishida yordam beradi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi doirasida tadqiq etilgan materiallar savdo-sotiq, ishlab chiqarish, bevosita qurilish va me'morchilik soha vakillariga va shu soha doirasida tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan vatandoshlarimizning kelgusi ishlarida, ikki davlat o'rtasida savdo shartnomasi imzolash jarayonida qurilish va me'morchilik sohasi atamalaridan to'g'ri va aniq foydalanishlarida tematik lug'at sifatida yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, mazkur dissertatsiya ishi natijalari xitoy lingvistikasi sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda qo'llanilishi, jamlangan materiallar xitoy tili leksikologiyasi va leksikasiga oid maxsus kurslar tayyorlashda, o'zbek va xitoy tillarini o'rgatish jarayonlarida, darslik, qo'llanma hamda lug'atlar tuzishda, tarjimonlik faoliyati kabilarida keng qo'llanishi mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012 yil 29 oktabrdagi 418-son buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martidagi 36-son qarori asosida Magistratura to'g'risidagi nizomda belgilangan dissertatsiya tarkibiy qismlarining barchasini qamrab olgan, ya'ni titul varaq, ikki tildagi qisqacha annotasiya, mundarija, kirish va 3 bobdan iborat asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Har bir bob o'z mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda kichik qismlarga bo'lingan.

Ishning kirish qismida magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili), tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi "Hozirgi zamon tilshunosligida xitoy tilida qurilish

va me'morchilik atamolari o'rganilishining ilmiy – nazariy asoslari” deb nomlangan bo'lib, o'z ichiga “ “Atama” tushunchasining olimlar tomonidan tahlil etilishi”, “O'zbek tilshunoslarining atamashunoslikka oid ishlari tahlili” va “Tilshunoslikda atamashunoslikka oid ishlar tahlili” bo'limlarini qamrab olgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “Xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamalaridagi semantik o'zgarishlar tahlili” deb nomlangan. Bu bobga o'z navbatida “Xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamalarining tarixi”, “Atamalarning ekstralingvistik omillarga ko'ra guruhlariga ajratilishi” hamda “Atamalarning asl lingvistik omillarga ko'ra guruhlariga ajratilish tahlili” deb nomlangan bo'limlar kirgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi “Xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik atamalarining morfologik tahlili” deb nomlangan bo'lib, ushbu bob “Xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik atamalarining N+N modeli orqali yasalish usullari tahlili” va “Xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik atamalarining A+N va V+N modellari orqali yasalish usullari tahlili” kabi bo'limlarni o'z ichiga olgan.

Har bir bob yuzasidan alohida xulosalar keltirilgan bo'lib, ishning xulosasida tadqiqot tahlillari umumlashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida 72 ta o'zbek, xitoy, rus va ingliz tilidagi kitoblar va maqolalar hamda lug'atlar ro'yxati taqdim etilgan. Ishning umumiy hajmi 84 bet.

I BOB. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA XITOIY TILIDA QURILISH VA ME'MORCHILIK ATAMALARI O'RGANILISHINING ILMIY – NAZARIY ASOSLARI

1.1. “Atama ” tushunchasining olimlar tomonidan tahlil etilishi

Ma'lumki, har qanday so'z o'zining xususiyatiga ko'ra umummuomaladagi so'z yoki termin bo'lishi mumkin. Hozirgi zamon fanlari ko'plab sohalarga bo'linar ekan, ularda ishlatiladigan leksemalarning o'zni, mohiyatini belgilab olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasida termindan farqli ravishda atamalar tahlili ko'rib chiqiladi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, umumiy tilshunoslikda barcha uchun ma'lum bo'lgan “termin” tushunchasi ko'plab qo'llaniladi. O'zbek tilshunosligida esa “termin” tushunchasi bilan bir qatorda “atama” tushunchasi ham qo'llaniladi. Shu sababli, bu ikki tushunchani farqlashda birmuncha mulohazali holatlarga duch kelinmoqda. Shu jihatdan termin va notermin so'z va so'z birikmalarini farqlash mezonlari aniq belgilangan. Quyida umumiy tilshunoslikka o'z nazariy qarashlari bilan salmoqli hissa qo'shgan tilshunos olimlarning ushbu masalaga doir qarashlarini ko'rib chiqamiz.

O.S. Ahmanovning fikricha, “termin” maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va xos narsalarni to'g'ri talqin etish maqsadida vujudga keltirilgan (qabul qilingan, o'zlashtirilgan) tildagi (ilmiy, texnikaviy va b.) maxsus so'z yoki so'zlar birikmasidir”⁷.

A. Xojiyev terminga quyidagi difinitsiyani keltirgan: “Termin (lat. Terminus – chek, chegara chegara belgisi) fan - texnika, kasb - hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir”. Yoki “Atama - maxsus ilmiy tushuncha ma'nosini ifodalovchi so'z yoki so'zlar birikmasidir”. Termin – fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi; atama. Terminlar bir ma'noli

⁷.Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М., 1966.- 479 б.

bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’ moldagi so‘zlardan farqlanadi⁸.

Termin (lot. Terminus – chek, chegara, chegara belgisi) ya’ni atama – maxsus ilm-fan yoki faoliyat doirasidagi tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi⁹.

Hozirgi zamon mantiqshunosligida “atama”, “termin” so‘zi bilan birgalikda “term” so‘zini ham qo‘llaniladi. Rus tilida “termin” va “term” tushunchalari mavjud bo‘lsa, ingliz tilida ikkala ma’noni o‘zida mujassam etgan “term” so‘zi qo‘llaniladi va bu so‘zdan o‘z navbatida yana bir necha boshqa ma’nolar kelib chiqadi. “Term” (ing. term, fr.terme, lot. terminus “chegara”, keyinroq – “ifoda”, “izoh”) bizni qiziqtirayotgan ma’noda inglizlar tomonidan “technical term” degan so‘z birikmasi bilan ifodalanadi va so‘z birikma ko‘p hollarda “texnik atama” degan holda tarjima qilinadi. Aslida bu texnika atamasi emas, balki umumiy ma’nodagi atamani bildiradi. “Technical” sifat so‘zi bu yerda grekcha “san’at, mohirlik, kasb - hunar” ma’nolarga yaqin bo‘lgan ma’noda ishlatilgan. Shunday qilib, inglizcha “technical term” atamasi atamaning mahoratligi va nisbiy yo‘naltirilganligini ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan¹⁰. Shunisi qiziqarliki, lot.“ terminus” so‘zining kelib chiqishi grekcha ma’nosi bilan bog‘liq:

1.poyga maydonidagi ohirgi ustun; 2. chegara, yakun. Lekin o‘zining terminologik ma’nosiga bu so‘z faqatgina lotin tilida ega bo‘ldi:

1. mantiqiy (definicion, nominativ) jihat (D.S.Lotte, V.P.Danilenko, T.L.Kandelaki): «Ma’lum bir tushunchalar sistemasida o‘zining definititsiyasini talab qiluvchi so‘z yoki so‘z birikmasi tarmin sifatida qabul qilinadi».

2. funksional (kontekstual) jihat (G.O.Vinokur, O.S.Ahmanova, B.N.Golovin va b.): «terminning to‘la ma’nosi faqatgina uning haqqoniy vazifasi, metasintaksisi orqali ochiladi».

Yuqoridagi ikki qarash ham ahamiyatga ega. Til bu – murakkab, ko‘p jihatli hodisa bo‘lib, uni o‘rganishda turli - xil qarashlar, fikrlar, xulosalar kelib chiqadi,

⁸ Хожиёв А.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.- Т.: Фан, 2002.-В. 104.

⁹Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь.- М.:1990. - С.508.

¹⁰ Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: Наука, 1989. – 13 б.

demak, turli - xil uslublar qo'llanilishini taqozo etadi¹¹.

Shu o'rinda bir savol tug'ilishi mumkin: "so'z" va "termin" bir narsami yoki har xil ma'nolarni anglatuvchilarmi? A.A.Reformatskiy ushbu masalaga bildirgan fikri quyidagicha: "Albatta, har bir termin bu so'z. Lekin har bir so'z termin emas... Agar so'z faqatgina termin sifatida qo'llanilayotgan bo'lsa, u holda uning "oddiy so'z" dan farqini qidirish befoyda. Biroq, ko'pincha, ma'lum - bir "so'z" goh termin bo'lib qoladi, goh esa termin bo'lmaydi. Termin ko'rinishiga ushbu so'zlar tuzilishi bilan moslashib oladi. So'z terminga aylangach o'zining sinonimlik va antonimlik xususiyatlarini yo'qotadi"¹².

Demak, termin so'z bo'la oladi, biroq har qanday so'z termin bo'la olmaydi. Chunki, eng avvalo, so'z o'zi izohlayotgan tushunchaning talabini, ehtiyojini to'la qondirib, u haqidagi ma'lumotni o'zida imkon qadar mujassam qilgan bo'lishi lozim. Aks holda u so'z so'zligicha qolaveradi. So'z terminga aylangach, terming xos bo'lgan xususiyatlarning vujudga kelishi tabiiydir. Shunday qilib, termin – so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, u imkon qadar bir ma'nolikka intiladi. Tilshunos olimlarning fikrlariga ko'ra, atama sinonimlik va antonimlik xususiyatlarga ega emas. Biroq ma'lum - bir tushuncha ayrim vaqtda bir nechta termin bilan berilishi mumkin.

Oddiy so'z uchun tashqi shakl muhim bo'lsa, atama uchun birinchi o'rinda uning mazmuni turadi. Shakl esa atama yaratilishining boshlang'ich paytida u qadar aniq bo'lmasligi mumkin. Bu atamaning umumiy leksikadan farqini belgilab beradi. So'z uchun uning jaranglashi, ya'ni tovushlar bilan ifodalanishi, mazmuni va nomlanilayotgan narsa-buyum o'rtasidagi bog'liqlik bir butunlik sifatida gavdalansa, atamada bunday butunlik kuzatilmaydi. Masalan, agar gap atamaning leksik yoki sintaktik bog'lanishlari haqida ketsa, atama bu o'rinda so'z sifatida qabul qilinadi, lekin atamaning tushuncha bilan bog'liqligi haqida

¹¹Н. Хомскийни фирига кура, «Тил бу куп микдорлик (чегараланган ёки чегараланмаган) ходиса булиб, у гапдан иборатдур ва хар бир гап узиниг аник чегарасига эга ва ўз навбатида чегараланган кўп элементлардан иборат. – Н.Хомский. Синтаксические структуры. М.: Наука. 1962. – 416 б.
Тилдефиницияси хакида: Sapir E.(1921) Language.New York. Harcourt Brace, Bloch B.&Trager G.L.(1942) Outline of Linguistic Analysis. Baltimore:Linguistic Societe of America/Waverly Press, Hall R.A. (1968) Essay of Language.Philadelphia&New York:Chilton Books, Robins R.N. (1974) Language// Encyclopaedia Britannica, 15 th edn.

¹²Реформатский А.А. Введение в языкознание.- М., 1955.- 115 б.

gap ketsa, bu o‘rinda atama so‘zga qarama – qarshi qo‘yilib, uning tushunchasi maxsus tushuncha sifatida umumiy tushunchaga zid bo‘lgan tarzda qabul qilinadi. Bu esa o‘z o‘rinda « atama-tushuncha» va « atama-so‘zlarni» farqlashni taqozo etadi. Atama – so‘z va atama – tushuncha bir narsa emasligi har xil tillardagi bir fanning atama sistemalarini taqqoslashda namoyon bo‘ladi, chunki bu tillarda bir tushuncha turli so‘zlar bilan ifodalanadi¹³. Masalan: rus tilida “дверь” va o‘zbek tilidagi “eshik” so‘zlari, xitoy tilida esa , 门 «men».

Xitoy tilshunosligida 术语 – [shuyu] - “atama” atamasi “Cihai” nomli izohli lug‘atda frazeologiya atamasiga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, uning tarkibiga maqollarni, matallarni, aforizmlarni, hikmatli so‘zlarni, chengyu (frazeologizmlar) larni kirgizganlar¹⁴.

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan “termin” uchun umumiy ta’rif yo‘qligi ko‘rinib turibdi, desa bo‘ladi. Turli kasb egalarida “termin” bilan bog‘liq bo‘lgan turlicha tushunchalar va yondoshuvlar vujudga kelgan. Masalan, mantiqiy termin deganda definitsiyasi belgilangan har qanday so‘z tushinilishi mumkin. Terminni bunday tarzda qabul qilish Platon davrida qadimgi grek ilmfan sohasida vujudga kelgan va bir necha ming asrlardan o‘tib kelgan. Faylasuflar terminni- definitsiyalar qisqaruvi, deb tushunishadi, termin va definitsiya o‘rtasida “ = ” belgisini qo‘yishadi. Tilshunos – lingvist tomonidan bu o‘rinda “ = ” belgisi qo‘llanilmaydi, chunki termin – bu tushunchaning nomi, definitsiya esa ushbu nomning keng qamrovli ta’rifidir. Lingvist ba’zi hollarda o‘zlashtirilgan so‘zni “termin” deb biladi, chunki tilning lug‘aviy tarkibida o‘zlashtirma “o‘zga”ligi bilan ajralib turadi.¹⁵

Termin – ma’lum vaziyatlarda qo‘llaniladigan fan va siyosiy ijtimoiy (kasbiy) faoliyatda qabul qilingan maxsus so‘z yoki so‘z birikmasidir. Termin – ma’lum doiradagi kasbiy bilimlarning tushunchalar sistemasiga kirgan tushunchaning so‘z bilan ifodalanishi. Termin – ma’lum maqsadga qaratilgan tilning eng asosiy

¹³ Носирова С.А. Хозирги замон хитой тили дипломатик атамаларнинг лексик-семантик ва структурал таҳлили : Филол. фан. номз. дис.Т., 2007. – 192 б.

¹⁴ Cihai.–Пекин, 1995.- 1572 б.

¹⁵ Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: Наука, 1989. – 11 б.

tushuncha birligi, deyish mumkin.¹⁶

Hozirgi kunda atamani uning qandaydir bir qat'iy belgisini ilgari surgan holda, lingvistik izlanishlar ob'ekti sifatida turli tomonlama sharhlash an'anasi vujudga kelmoqda.

术语 – [shuyu] “termin” so‘ziga xitoy tilshunoslari tomonidan quyidagicha ta’rif beriladi: “termin - bu fan – texnika sohasida qo‘llaniluvchi maxsus so‘zlardir. Fan – texnikaning har bir sohasi ko‘plab atamalarni ishlatadi. Har bir termin esa fan – texnika doirasidagi maxsus ma’noni ifodalaydi. Xitoy tilshunoslarining fikricha, terminning oddiy so‘zdan farqi uning qo‘llanilish doirasi cheklanganligi va aniq tushunchani ifodalaganidadir. Xitoy tilida ham termin sinonimiya va omonimiya, ekspressivlik sifatlariga ega emas”¹⁷.

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, “termin” va “atama” tushunchasini sinonim deb qarash biroz bahs talab masala bo‘lib qolmoqda. Chunki “termin” tushunchasi tor doirada qo‘llaniluvchi maxsus so‘zlarnigina qamrab oladi, “atama” tushunchasi esa bundan farqli ravishda umummuomaladagi so‘zlarni ham qamrab olishi mumkin (masalan, me’morchilik sohasi atamalari: eshik, rom, devor, oyna va b. kabi).

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida me’morchilik atamalarini tematik guruh sifatida ko‘rib chiqilishi maqsad qilib olinganligi sababli, “tematik guruh” tushunchasiga ham olimlar tomonidan berilgan fikr va qarashlar ko‘rib chiqildi.

Tematik guruh – turli xil nutq birliklarining bir mavzu atrofida ekstralingvistik omillarga asoslangan holda jamlangan guruhi¹⁸.

Shuni ta’kidlash lozimki, tilshunoslikda klassifikatsiya ikki holatda: so‘z atama deb tahlil etilayotganda uning atamaga xos tushuncha ekanligini tahlil etishda hamda leksik vositalarni tahlil etishda, ularning ma’nolarini aniqlashda qo‘llaniladi¹⁹.

¹⁶Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: Наука, 1989. – 14 б.

¹⁷语言学名词解释. - 北京. 商务印书馆, 1960. -57 页.

¹⁸Жерибило Т.В. Словарь лингвистических терминов.- Назрань: Изд-во: “Пилигрим”, 2010.

¹⁹Багана Ж, Таранова Е.Н. Роль тематической классификации в терминологических исследованиях // Вестник РУДН, серия Лингвистика. – Белгород, 2010. - №3. – С.46

Tematik klassifikatsiya leksik birliklarni sistema sifatida o'rganishdagi eng asosiy va boshlang'ich vazifa hisoblanadi. Ushbu klassifikatsiya leksik – semantik klassifikatsiya yakuniy bosqichga yetib borayotgan paytda amalga oshiriladi. Leksik materiallarni tematik guruhga ajratish – leksikani tasvirlashdagi eng ko'p tarqalgan usullardan biri.

Tilshunoslikda umumiy leksikaning sistema sifatida namoyon bo'lishida alohida olingan so'zlarning tematik guruhlariga ajratilishi va ularning struktur taqqosida yuzaga keladi. Har qanday soha atamashunosligi nazariy jihatdan struktur guruhlar, sinflar yoki bloklardan tashkil topadi.

Til sistemasida leksemalarning ma'no mazmun jihatdan bog'lanishi turli xil bo'lganligi sababli, turli xil so'z guruhlariga ajratiladi: predmetlik (yoki terminologik), etimologik, leksik – semantik guruhlar, semantik maydon va boshqalar.

Tematik guruhning leksik – semantik guruhdan farqi shundaki, tematik guruhlarda so'zlar o'zaro leksik – semantik aloqalarga emas, balki, aynan predmetning yoki hodisaning klassifikatsiya qilinishiga asoslangan holda jamlanadi.

Shu sababli ham tematik guruh leksik – semantik guruhdan kengroq hisoblanadi. Bunday guruhlarda so'zlar o'zaro “neytral” yoki “nol” darajada semantik bog'langan bo'lib, asosan, predmetlar, hodisa, jarayonlarning o'zi o'zaro bog'lanishga intiladi.

Leksikaning alohida tematik guruh sifatidagi tematik izlanishlarga ko'pgina ishlar bag'ishlangan. Shu yo'nalish bo'yicha asosiy ishlar qatoriga A.A. Reformatskiy, A.A. Ufimseva, D.N. Shmelev, F.P. Filin, V.V. Levitskiy, M.M. Pokrovskiy, V.V. Vinogradov, Y.S. Sorokin, O.N. Trubachev, M.A. Borodina, V.G. Gak, V.N. Proxorova, V.V. Kolesov, G.A. Abramova va boshqalarning ishlari kiritiladi²⁰.

Tematik klassifikatsiya qilish uchun tadqiqotchilar turli xil mezonlarga asoslanadilar. Masalan, E.M. Vereshagin va V.G. Kostomarov genetik

²⁰ Багана Ж, Таранова Е.Н. Роль тематической классификации в терминологических исследованиях // Вестник РУДН, серия Лингвистика. – Белгород, 2010. - №3. – С.47

klassifikatsiya asoslarini tematik klassifikatsiya bilan, E.S. Opelbaum logik, tashqi mezonlarga asoslanadi.

J. Bagana va E.N. Taranovalarning fikricha, atamalarni tematik va aynan, tushunchaviy – tematik prinsip asosida guruhlariga ajratish soʻz – atamalarni maʼno jihatdan mosligini sistematizatsiyalashda, ularning farqi va oʻxshashliklarini aniqlashda, umumiy atamalar maydoniga mansub alohida olingan atamalar guruhi va guruhchalarining oʻziga xosliklarini koʻrishda yordam beradi.

Tematik guruhlar ichidagi munosabat maʼlum bir nuqtai nazardan toʻldiruvchi, aniqlovchi boʻlib kelishi mumkin, guruhlar ichidagi oʻzaro bogʻlanish esa bir guruh tarkibiga kiruvchi soʻzlarni, boshqa guruh tarkibiga kiruvchi soʻzlar bilan oʻzaro maʼno – mazmun, turli xil ichki bogʻlanishlar yordamida amalga oshiriladi.

Guruhlariga boʻlish jarayoni amaliy ahamiyat kasb etishi uchun, ularni shunchaki tasodifiy holatlariga koʻra emas, balki aniq bir xususiyatlariga asoslangan holda guruhlariga boʻlish lozim. Tushuncha (soʻz, atama) larni tematik guruhlariga ajratilganda aniq va qoʻshimcha xususiyatlarga eʼtibor beriladi.

Guruhlariga boʻlish eng keng tushunchalardan boshlanadi, odatda guruhlariga nom berilib, undan soʻng guruhlashtirish fanda mavjud boʻlgan eng tor xususiyatlarga qadar davom ettiriladi. Buning natijasida guruhlar tarkibidagi barcha oʻzaro bogʻliqliklar yaqqol namoyon boʻladi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida esa, xitoy tilidagi qurilish va meʼmorchilik bilan bogʻliq atamalar tematik guruh sifatida ekstralingvistik va lingvistik omillarga asoslanib guruhlariga ajratilgan holda koʻrib chiqiladi.

1.2. Tilshunoslikda atamashunoslikka oid ishlar tahlili

Umumiy tilshunoslikda atama (yoki termin)lar tahliliga bagʻishlangan ilmiy ishlar talaygina boʻlib, ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan ishlarni koʻrib chiqamiz.

M.M. Bekmurodov ilmiy ishida terminologiya haqida umumiy ma'lumotlarni taqdim etgan holda, qurilish sohasi terminologiyasini leksik-semantik, struktur tahlil etgan, leksik-semantik va struktur tahlilning qurilish terminologiyasida o'ziga xosligini tojik va ingliz tillari misolida tadqiq etgan hamda qurilish sohasi terminologiyasining leksik-tematik klassifikatsiyasini taqdim etgan.²¹

Ushbu ishda muallif qurilish sohasi terminologiyasini leksik-semantik tahlil qilish jarayonida terminlarni 4ta tematik guruhga ajratgan: 1) maskan, xona, istiqomatgoh (uy, yashash joyining umumiy nomlanishi); 2) ko'shk, koh, saroy va b.(hukmdorlarning yashash joylari, saroy); 3) mehmonxona. Rabot va b.(vaqtinchalik yashash joyi) 4) maxsus buyurilgan yashash joylari. Ushbu guruhlar orasidagi umumiy semantik hodisani muallif guruhdan guruhga o'tuvchi, ularni birlashtiruvchi sema deb ataydi ya'ni, ushbu guruhlar o'rtasidagi terminlarni ma'no jihatdan birlashtiruvchi sema bu "turar joy" dir. Muallif shuni ham qayd etib o'tganki, yuqorida keltirilgan guruhlar, guruhlar tarkibidagi guruhchalarni tashkil etuvchi terminlar paradigmatic aloqani vujudga keltiradi va ular orasiga beton, armatura, g'isht va boshqa so'zlarni kiritish noto'g'ri hisoblanadi.

Ushbu ilmiy ishning bizning dissertatsiya ishimiz bilan uzviy bog'liqliklari juda ko'p bo'lib, biz ishimiz doirasidagi atamalarni leksik-semantik tahlil qilishda atamalar o'rtasidagi bog'liqliklarga ham alohida e'tibor berish kerakligiga guvohi bo'ldik. Tahlil jarayonida, atamalarni tematik guruhga ajratishda biz ham yuqoridagi ilmiy ish kabi atamalarning paradigmatic aloqalarini saqlab qolishga harakat qilamiz.

S.G. Kurbatova ilmiy ishining birinchi bobini hozirgi zamon lingvistikasida termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag'ishlagan holda termin so'zining mazmun mohiyati, terminning semantik xarakterlanishi, termin va umumiy qo'llaniladigan so'zlarning farqlarini ko'rib chiqqan.²²

²¹ Бекмуродов М.М. Лексико-семантический и структурный анализ строительной терминологии: канд. дисс. филол. наук. автореф. – Душанбе, 2002. – 22с.

²² Курбатова С.Г. Диахронный и синхронный лексико-грамматический анализ французской терминологии по телекоммуникации: канд. дисс. филол. наук. автореф. – Санкт-Петербург, 2003. – 20с.

Ikkinchi va uchinchi boblarida terminologiyada sinxroniya va diaxroniyaning o'zni, fransuz tilidagi telekommunikatsiya terminologiyasida leksik-semantik va formal-struktur tahlillar va boshqalarni ko'rib chiqqan.

Grammatik tahlil ushbu ishda termin yasallishining morfologik – sintaksis, morfologik, sintaksis, semantik usullari orqali tahlil etilgan.

Rus xitoyshunosi O.P. Frolovaning ta'kidlashicha, terminlar shakllanishi bevosita so'z yasallishi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, terminlar hosil bo'lishi – so'z yasallishi masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki terminlar shakllanishi so'z yasallishi asosida sodir bo'ladi. Shuning uchun termin va ularning shakllanishini so'z yasallishi masalasini o'rganmasdan turib tadqiq etib bo'lmaydi²³.

Ana shu jihatni hisobga olgan holda quyida ayrim xitoy, rus, g'arb xitoyshunoslarining so'z va atamalar hosil bo'lishi bilan bog'liq ishlarini ko'rib chiqamiz.

Xitoy tilshunosligida so'z yasallish masalasini o'rganishga Chjan Shoukan, Vang Li, Luy Shusian, Gao Minkai, Li Jinsi, Lu Chjivey, Chju Desi va boshqa shu kabi mashxur lingvistlar o'z xissalarini qo'shishgan.

Xitoy tili atamashunoslik muammolari Chjou Yuguanning monografiyasida o'z aksini topgan²⁴. Bu yerda ham atamashunoslikning ba'zi bir lingvistik masalalari tadqiq etilgan. Chjou Yuguan o'zak va yordamchi morfemalar haqida o'zining qarashlarini keltirib o'tadi hamda murakkab so'zlarning uch turini ko'rsatib beradi: 1) kompozit shakldagi murakkab so'zlar; 2) zamonaviy xitoy tilida eskirgan murakkab so'zlar; 3) zamonaviy xitoy tilida tarkibidagi bitta so'z eskirgan murakkab so'zlar. So'z yasallishining prefiksatsiya, suffiksatsiya, reduplikatsiya usullarini ajratib ko'rsatgan.

Shuni ta'kidlash joizki, xitoy tilshunoslarining atamashunoslik hamda atamalarni turlarga ajratish masalasini o'rganish bilan bog'liq ishlarida bir – biriga o'xshash jihatlar kuzatilmaydi.

²³ Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. Новосибирск.: 1981.- с. 6.

²⁴ 周有光. 汉字改革概论. 北京, 1964 年.

Gʻarb va yapon xitoyshunoslarining asarlarida atamashunoslik masalasiga asosan xitoy tiliga oid umumiy tadqiqotlarda illustrativ material sifatida eʻtibor qaratiladi²⁵. Biroq atamashunoslikning baʼzi bir masalalariga bagʻishlangan asarlar ham yoʻq emas. Ular asosan atamalar tarjimasi, atamashunoslik yoʻnalishilar bilan bogʻliq ishlardir. (Alleton, Nidem, Bodde, Gottfrid, Ogata Tomio, Umesao Tadao, Kamo Masaiti, Sugiyama Eyiti va boshqalar)²⁶.

Gʻarb olimlaridan amerikalik tilshunos Zhao Yuanren xitoy tili biologiya atamashunosligi boʻyicha qilgan ishi eʻtiborga loyiq²⁷. Bu ish oʻzining boy materiallari hamda atamalar yasalihi bilan bogʻliq alohida til omillarining kuzatilganligi bilan qiziqdir. Barcha tahlil qilingan atamalar soʻz yasalihiining 5 ta turiga ajratib oʻrganilgan. Oʻsimliklarga doir atamalarni yasovchi 子 zǐ va 儿 ér soʻz yasovchi morfemalarning tahlili ishning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Zhao Yuanren nafaqat ot, balki sifat hamda feʻl soʻz turkumlariga oid atamalarni ham oʻz ishida koʻrib chiqqan. U oʻrganib chiqqan atamalar asosan ikki morfemali murakkab soʻzlardir. Lekin uning asarida yanada murakkabroq atamalar tahlil qilinmaganligi sababli, murakkab soʻzlarning yasalihi xususiyatlari yetarlicha ochib berilmagan.

O.P. Frolova oʻzining ilmiy asarida zamonaviy xitoy tili atamalar sistemasining tahlili, atamalar yasalihiining modellashtirilishi, ularning struktur – semantik tahlili hamda soʻz yasalihiining kompozitsiya va affiksatsiya usullarini toʻliq tahlil etgan. O.P. Frolova asarning ikkinchi bobini xitoy tili biologiya atamalari va ularning yasalihiiga bagʻishlagan. Turli ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda O.P. Frolova zamonaviy xitoy tili atamalar yasalihiining 3 ta asosiy usullarini koʻrsatib oʻtgan: 1) terminologizatsiya; 2) murakkab atamalarning yasalihi; 3) oʻzga tildan soʻz oʻzlashtirilishi²⁸.

²⁵ 新名词的翻译看汉字的缺点。“中国语文”。1953。

²⁶ Alleton V. et G.-G. Terminologie de la Chimie en Chinois Moderne. Paris. 1966; Needham J. The translation of old Chinese scientific and technical texts.-Babel. 1958. Vol.IV. №1; Bodde D. On translating Chinese philosophic terms.-the Far Eastern Quarterly. 1955. Vol. XIX, № 2; Gottfried S. Schriftzeichenanalysen medizinischer Termini technici in der chinesischen Sprache. Leipzig. 1958.

²⁷ Yen Renchao. Popular chinese plant words. A descriptive lexico-grammatical study.-Language. 1959. Vol.29. №3

²⁸ Фролова О.П. Словообразование в терминологический лексике современного китайского языка.

Xitoy tilida qurilish va me'morchilik bilan bog'liq atamalarining leksik – semantik va grammatik tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlar deyarli yo'q. Ammo, xitoylik olimlardan shu soha bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan bir qancha olimlarning asarlarini aytib o'tishimiz joizdir. Bular qatoriga eng avvalo, Li Jinlongning “Xitoy qadimiy binolarini farqlash” (Bu ishda olim Xitoy milliy me'morchilik atamalarini qaysi davrda paydo bo'lib, qaysi davrda rivojlangan bosqichlarini guruhlariga bo'lgan holda o'rganib chiqqan)²⁹, Vang Siaoqing ning ushbu sohaga oid “Xitoy qadimiy binolari terminlari lug'ati”³⁰, ni hamda Luo Zhewen ning “Xitoy qadimgi me'morchiligi va qurilishi”³¹, Jia He ning “Xitoy qadimiy qurilishiga taaluqli ko'p uchraydigan savol- javoblar ”³², Wang Wei va Si Lu ning hammuallifliklaridagi “Xitoy me'morchiligi madaniyati”³³ kabi asarlarni aytib o'tishimiz mumkin.

1.3. O'zbek tilshunoslarining atamashunoslikka oid ishlari tahlili

Aytib o'tilganidek, tilshunoslikda va aynan o'zbek tilshunosligida “atama” tushunchasi uch xil ma'noda talqin etiladi, ya'ni, o'zbek tilshunoslari “atama” tushunchasi asosida o'z ishlarida biror sohaga oid maxsus so'zlarni “termin”, “tematik guruh” yoki “semantik guruh” sifatida ko'rib chiqadilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, hamma so'z ham termin bo'la olmaydi, ya'ni, biror sohaga oid ma'lum bir so'zlar guruhiga atamalar deb qaralsa, bu guruh ichiga kiruvchi so'zlar umumqo'llaniladigan so'zlar bo'lishi ham mumkin, masalan, me'morchilikka oid bo'lgan hoda, to'sin, pardevor, lomboz so'zlari shu soha mutaxassislari bo'lmaganlar orasida ham quruvchilikda ko'p ishlatiladi, bunday holatda ushbu guruhdagi so'zlarni atamalar deb talqin etish tog'ri hisoblanadi.

Новосибирск.: 1981.- с. 36.

²⁹李金龙. 识别中国古建筑/著, 绘。- 上海: 上海书店出版社, 2008 年。232 页.

³⁰王效清. 中国古建筑术语辞典。- 北京: 文物出版社, 2007 年。504 页.

³¹罗哲文. 中国古代建筑。- 上海: 古籍出版社, 2001. 640 页.

³²嘉禾. 中国古典建筑常识问答。- 北京: 新世界出版社, 2009. 244 页.

³³王蔚, 思录. 中国建筑文化/编著。- 北京: 时事出版社, 2009. 302 页.

Aynan shu guruhga terminlar guruhi deb qaralgan holatda esa, ushbu guruhdan umumqoʻllaniladigan soʻzlar chiqarib yuboriladi va shunday soʻzlar kiritiladiki, bu soʻzlar faqatgina ushbu soha mutaxassislari ishlatadigan, tor doirada qoʻllaniladigan maxsus soʻzlar guruhini tashkil etadi. Quyida “atama” tushunchasi ostida biror bir soha soʻzlarini tematik, leksik – semantik guruh sifatida koʻrib chiqqan ayrim tilshunoslarning ishlarini koʻrib chiqamiz.

S.A. Nosirovaning hozirgi zamon xitoy tili diplomatik atamalarining leksik – semantik va struktural tahliliga bagʻishlangan ilmiy ishida xitoy tilida diplomatik leksikaning shakllanishi, atamalarining leksik–semantik va struktural tahlili masalalari, hozirgi zamon xitoy tilida diplomatik atamalarining yasash usullari yaʼni, kompozitsiya usuli, kompozitsiya usulining atributiv, kopulyativ, feʼl - obyektli modellarini, oʻzlashtirish usuli, semantik va fonetik kalka, abbreviatsiya usullari yordamida yasalgan atamalar tahlil qilingan.³⁴

Muallif ilmiy ishda hozirgi zamon xitoy tili diplomatik atamalarining tahlili sifatida 7ta asosiy leksik-semantik guruhlarni taqdim etgan.

Ushbu guruhlar tarkibidagi diplomatik atamalarining joylashuviga, ketma-ketligiga ierarxik munosabatlar taʼsir koʻrsatishi aniqlangan. (masalan, elchi-ishonchli vakil- maslahatchi-bosh konsul, birinchi kotib-ikkinchi kotib-uchinchi kotib-attashe va h.). Leksik –semantik tahlil jarayonida atamalar oʻrtasida sinonimiya xodisasi aniqlangan.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida xitoy tilidagi qurilish va meʼmorchilik atamalarining leksik-semantik tahlilini koʻrib chiqish jarayonida yuqoridagi ilmiy ishda koʻrilgani kabi atamalarni leksik-semantik, tematik guruhlarga ajratishni oldimizga maqsad qilib oldik. Yuqoridagi ilmiy ishdan farqli ravishda esa, atamalarining binoning qayerida qoʻllanilishi, qachon paydo boʻlganligi hamda qaysi davrda keng qoʻllanilganligi, sinonimlik xususiyatlarini koʻrib chiqamiz.

M.Sh. Saidova Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili nomli ishida nikohgacha va nikohdan keyin hosil boʻladigan

³⁴ Носирова С.А. Хозирги замон хитой тили дипломатик атамаларнинг лексик-семантик ва структурал таҳлили : Филол. фан. номз. дис.Т., 2007. – 192 б.

qarindoshlik terminlarini leksik xususiyati, etimologiyasi, genezisi, yaratilish tarixlarini o'rgangan. Ya'ni, muallif qarindoshlik terminlarini ikkita katta tematik guruhga ajratgan holda, ushbu guruhlardagi terminlarini leksik-semantik jihatdan tahlil qilgan.³⁵

Quyida esa o'zbek tilshunoslarining ma'lum bir soha terminologiyasiga bag'ishlangan ishlarni ko'rib chiqamiz.

I.X.Pardayeva O'zbek tilining zargarlik terminologiyasi nomli ilmiy ishida o'zbek tilidagi zargarlik terminlarini leksik- semantik, struktur jihatdan tahlil qilgan.³⁶ Ushbu ishning ikkinchi bobining to'rtinchi bo'limi zargarlik terminlarining semantik usul bilan hosil bo'lishi deb nomlangan bo'lib, ishning aynan shu qismi bizga dissertatsiyamizni yozishda namuna bo'la oladi.

Ushbu ishda muallif o'zbek tili leksikasining eng qadimiy qatlamlaridan bo'lmish zargarlik terminlari, ya'ni zargarlik zeb- ziynat buyumlari, ularning qisimlari, asbob-uskunalari hamda ularni yasaydigan, sayqal beradigan kasb-kor egalari terminlarini tematik jihatdan 6ta guruhlariga ajratgan. Leksik –semantik tahlil jarayonida muallif zargarlik terminlarini sinonimlik xususiyatlari, evolutsion, diaxronik tahlillarini, terminlarning o'zaro tabiatda mavjud bo'lgan jismlarning nomlari bilan bevosita bog'liqliklarini, terminlarning shakllanishini ochib bergan.

Mazkur ishda ko'rilgan tahlillar bizning dissertatsiyamizni yozishda ya'ni aynan atamalarni leksik-semantik jihatdan tahlilini amalga oshirish jarayonida atamalarni paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishi, evolutsiyasini ham ko'rib chiqish zaruriyati borligini tasdiqladi.

H.E. Yodgorov O'zbek tili harbiy terminologiyasining sinxronik tadqiqi nomli ishida harbiy terminlarning semantik, affiksial, kompozitsion usul bilan yasallishini ko'rib chiqqan.³⁷

Muallif ishida hozirgi o'zbek tili harbiy terminologiyasida umumo'zbek

³⁵ Саидова М.Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. дис. Т., 1995. – 137 б.

³⁶ Пардаева И.Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фан. номз. дис. Т., 1994. – 128 б.

³⁷ Ёдгоров Х.Э. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи: Филол. фан. номз. дис. Т., 1996. – 190 б.

tilining ayrim leksik birliklari semantik usul vositasida harbiy tushunchalarni anglatishini ko‘rib chiqqan. Masalan, umumadabiy tilda “qism” so‘zi aslida “butunning tarkibi, uzviy bo‘lagi yoki hissasi, ulushi” ma’nolarini ifodalaydi, zaruriyat tug‘ilganligi sababli, ushbu so‘zning semantikasini kengaytirish, ya’ni harbiy ma’no “yuklash” kerak bo‘lib qolganligidan “qurolli kuchlar tarkibidagi alohida bo‘lim, bo‘linma yoki tuzilma” ma’nosida qo‘llashga ehtiyoj seziladi deb yozadi muallif. Hamda shu kabi semantik usulda yasalgan harbiy terminlarni matn asosida yanada aniqroq tahlil etgan.

M.S. Ahatova O‘zbek tilining yog‘ochsozlik terminologiyasi nomli ishida yog‘ochsozlik bilan bog‘liq terminlarning semantik, leksik – sintaktik, morfologik usullarda yasallishini ko‘rib chiqqan. Termin yasallishining semantik usuli tahlillarini amalga oshirish jarayonida yog‘ochsozlikka doir leksemalar sof semantik, semantik-sintaktik usullar bilan yasallishini aniqlagan.³⁸

Terminlar yasallishining sof semantik usulida bir soha terminologiyasining “mulki” bo‘lgan lug‘aviy birlik uning ma’nosini metaforik ko‘chirish asosida ikkinchi bir sohaga o‘tadi. Masalan, qovoq leksemasi botanika sohasida termin sifatida ishlatiladi. Bu lug‘aviy birlik yog‘ochsozlikda “eshik, deraza, tokcha hamda mehrobning ustki qismiga o‘rnatilgan yog‘och qism” ma’nosini ham ifodalaydi.

Termin yasallishining morfologik usulini tahlil qilish jarayonida muallif yog‘ochsozlik terminlarini hosil bo‘lishida faol ishtirok etadigan affiksalar guruhini misollar orqali taqdim etgan hamda ot+ot andozasi (taxta pol, yog‘och oyoq), sifat+ot (qistirma yog‘och, shakldor oyoqlar) andozasiga ko‘ra yasalgan terminlarni tahlil etgan.

Biz o‘z magistrlik dissertatsiyamizda xitoy tilida qurilish va me’morchilik atamalarini tahlilini ko‘rib chiqamiz, bu o‘z navbatida aynan xitoy tilida mavjud bo‘lgan atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishni ham talab etadi. Xitoy milliy me’morchilik yodgorliklari yog‘ochdan ya’ni taxtadan sinchlab uy qurish konstruksiyasiga asoslanganligi barchamizga ma’lum, shu sababli ham ushbu

³⁸ Ахатова М.С. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси: Филол. фан. номз. дис. – Т., 2004. – 173 б.

ishda tahlilga tortilgan yog‘ochsozlik terminlari bizga xitoy tilidagi me‘morchilik atamalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishimizda katta birlamchi yordamni beradi.

Undan tashqari yog‘ochsozlik terminlari yasalishining morfologik usuliga doir tahlillar bizga me‘morchilik atamalarini grammatik tahlilini amalga oshirishimizda namuna sifatida xizmat qiladi. Biz ham ushbu ish kabi o‘z dissertatsiyamizning grammatik tahliliga oid qismini yozishda atamalarni qaysi so‘z turkumlariga oid ekanligini va atamalar o‘zaro qaysi andozaga asosan hosil bo‘lganligini ko‘rib chiqamiz.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida aynan xitoy milliy me‘morchiligiga oid atamalar tahlili ko‘rib chiqilishi maqsad qilib olinganligi sababli, mavzu doirasidagi atamalarni yig‘ish, tarjima qilish jarayonlari birmuncha murakkab bo‘lib, bunda atamalarni tog‘ri va aniq tarzda o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini topishda quyidagi manbaalardan foydalanildi: A. Haqqulovning tarixiy yodgorliklarni ta‘mirlashga bag‘ishlangan monografiyasidan o‘zbek tilidagi me‘morchilik yodgorliklari atamaları o‘rganib chiqildi va xitoy milliy me‘morchilik atamaları bilan solishtirilganda bir qancha o‘xshashliklar mavjudligi aniqlandi³⁹.

I bob bo‘yicha xulosa

Ushbu yig‘ilgan ilmiy adabiyotlarni o‘rganib chiqqan holda, quyidagi xulosalarga kelindi:

- Tilshunoslikda atama tahliliga bag‘ishlangan ishlarda turli xil nazariyalar, atamaga nisbatan tematik guruh, semantik guruh, leksik birlik sifatida qarashlar atamaning tahlil jarayonlarini turli tarzda amalga oshirilishiga olib keladi.
- Tilshunoslikda umumiy leksikaning sistema sifatida namoyon bo‘lishida alohida olingan so‘zlarning tematik guruhlariga ajratilishi va ularning struktur taqqosida yuzaga keladi. Har qanday soha atamashunosligi nazariy jihatdan struktur guruhlar, sinflar yoki bloklardan tashkil topadi.

³⁹ Хаққулов А. Тарихий ёдгорликларни таъмирлаш. Тошкент . “Ўқитувчи” нашриёти, 1983. 62-б.

- Biz mazkur magistrlik dissertatsiyamizni yozishda asosiy tayanch sifatida S.A. Nosirovaning Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik atamalarining leksik-semantik va struktural tahlili deb nomlangan ishidan foydalanishni maqsad qildik. Ushbu ishda atamalarni tematik guruhga ajratish masalasi, leksik – semantik tahlilda nimalarga e'tibor berish kerakligi yaqqol ochib berilgani e'tiborga loyiqdir.
- M.M. Bekmuradov ilmiy ishi bizning dissertatsiyamiz mazmuni bilan bevosita bog'liqligi sababli, biz ushbu ishdan boshqa tillarda tahlillar qay tarzda o'tkazilishini o'rganib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Ushbu ilmiy ishda tematik guruhlar, guruhlar ichidagi guruhchalar qanday hodisaga asoslangan holda tashkil etilishi masalasi chuqur tahlil etilganligi sababli, mazkur ishning ahamiyati katta.
- M.S. Ahatova O'zbek tilining yog'ochsozlik terminologiyasi deb nomlangan ishi bizga xitoy tilidan o'zbek tiliga atamalarni to'g'ri va aniq tarjima qilishimizda, grammatik tahlil jarayonini nimalarga asoslangan holda amalga oshirishimiz kerakligida yordam beradi.
- H.E. Yodgorov O'zbek tili harbiy terminologiyasining sinxronik tadqiqi, S.G. Kurbatova Fransuz tili telekommunikatsiya terminologiyasining diaxron va sinxron leksik – grammatik tahlili (С.Г. Курбатова Диахронный и синхронный лексико-грамматический анализ французской терминологии по телекоммуникации), M.Sh. Saidova Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili va boshqa ishlardan biz atamalarni qanday tarzda tematik guruhlarga ajratishni hamda grammatik tahlil qanday mezonlarga asoslangan holda amalga oshirilish masalalarini, har bir ishda ushbu turdagi tahlillar qanday ko'rib chiqilganligi o'rganib chiqildi.

II BOB. XITOIY TILIDA QURILISH VA ME'MORCHILIK ATAMALARIDAGI SEMANTIK O'ZGARISHLAR TAHLILI

2.1. Xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamalarining tarixi

Atamalar soʻzlar kabi jamiyat hayotini ifodalaydi. Har bir davr oʻziga xos boʻlgan atama-soʻzlarga ega. Atamalar tarixi ajdodlar hayotiga nazar tashlashga yordam beradi, atamalarda xalqning kundalik turmush tarzi oʻz aksini topgan⁴⁰. Shu sababli, ishimizning ushbu boʻlimida, xitoy qadimiy me'morchiligiga oid atamalar tanlab olinib, ularning qaysi davrda paydo boʻlib, ishlatila boshlanganligi, qanday oʻziga xos xususiyatlari mavjudligi, binoning qaysi qismida ishlatilishi, ularning oʻzbek tilidagi muqobil variantlarini aniqlash boʻyicha tahlil amalga oshirilishi koʻzlangan.

1. Me'morchilikda bino asosi va sinch qismi bilan bogʻliq atamalar

台基táijī – asos (fundament)

台基táijī xitoy me'morchiligida keng qoʻllaniladigan atama boʻlib, bu atamaning maʼnosi binoning asosi yaʼni fundamenti hisoblanadi. Binoning ustunlari yoki devor qismining quyi qatlamida joylashadi. 台基táijī ikki qismdan tashkil topgan boʻlib, yer ostidagi qismi “埋深” máishēn yoki “埋头” máitóu, yer ustida yaqqol koʻrinib turadigan qismi esa, “台明” táimíng deb nomlanadi. 台明táimíng asosan gʻisht yoki toshli qorishmadan quriladi.⁴¹

⁴⁰ Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV в.в.: док. дисс. филол. наук. автореф. – Т., 1992.–С.49.

⁴¹ 李金龙. 识别中国古建筑/著, 绘. - 上海: 上海书店出版社, 2008 年, 9 页。

Xitoy me'morchiligida 台基*táijī* atamasi qadimdan mavjud bo'lib, u o'zining mingyillik rivojlanishi jarayonida ikki katta turga ajraldi. Bulardan birinchisi, 方形台基*fāngxíng táijī* ya'ni, kvadrat shaklidagi asos(fundament) bo'lib, bu turdagi 台基*táijī* Xitoy hududida vujudga kelgan va rivojlangan. Ikkinchisi esa, 须弥座*xūmízuò* bo'lib, bu atama "Sumeru" so'zidan etimologik tarzda o'zlashgan so'z hisoblanadi va "ajoyib balandlik" deb tarjima qilinadi. Yanada kengroq aytadigan bo'lsak, "Sumeru" bu afsonalarda uchraydigan, qadimgi Hindistondagi ulkan tog' nomi bo'lib, bu tog' yer yuzidagi barcha odamlarning yashash joyi hisoblangan.⁴² Demak, ushbu Hindiston bilan bog'liq ma'lumotlardan ham bilishimiz mumkinki, 须弥座*xūmízuò* turidagi 台基*táijī* – asos, Xitoyda buddizm madaniyatining ta'siri ostida rivojlangan. 须弥座*xūmízuò* turida yaratilgan asos (fundament)lar tosh, g'isht, sir (glazur)li qorishma, taxta kabi ko'p turdagi maxsulotlardan qurilgan.

Yuqorida ta'riflangan har ikki turga mansub 台基*táijī* lar ko'rinish va rivojlanish nuqtai nazaridan turli xil bo'lsada, lekin ularning vazifalari bir xil, ya'ni, binoni mustahkam ushlab turish hamda odamlarning yuqoriga va pastga harakatlanishlari uchun zina vazifasini bajargan.

梁柱构架*liángzhù gòujià* – to'sin, ustunli sinch

Binoning 台基*táijī* ya'ni asosdan yuqorida joylashadigan qismi asosan, 梁柱*liángzhù* ya'ni ustun – to'sinlar, 格扇*géshàn* ya'ni panjarali pardevorlar va boshqa narsalardan tayyorlanadi va bu xitoy me'morchiligi atamashunosligida bir so'z bilan 梁柱构架*liáng zhùgòujià* deb nomlanib, binodagi sinchlarning umumiy ma'nosini anglatadi. Xitoy tilida sinch so'zining yana bir sinonimi

⁴²王效清。中国古建筑术语辞典。- 北京：文物出版社，2007年，307页。

sifatida 骨架gǔjià soʻzini ham kiritsak boʻladi. 骨架gǔjià atamasi 构架gòujià atamasiga qaraganda nisbatan kengroq maʼnolarni anglatadi, yaʼni 骨架gǔjià binodagi sinchlarning barcha ishlatilgan materiallari bilan birgalikda tayyor holga keltirilganini ifodalasa, 构架gòujià esa, yuqorida tilga olgan materiallarimiz: toʻsin, ustun, tavaqali pardevordan tayyorlangan yarimtayyor binoning sinchiga nisbatan ishlatiladi. 梁柱构架liáng zhùgòujià vazifasiga koʻra tirgakka qoplama sifatida foydalanib, yomgʻirli kunlarda himoya vositasi sanalgan hamda uyni tashqaridagi shovqin surondan himoyalagan.

Xitoyning yer sharida joylashgan oʻrni hamda tabiiy sharoitlarini hisobga olgan holda, qadimdan odamlar uy – joy qurishda koʻpgina hududlarda taxtadan asosiy material sifatida foydalanganlar. Dabdabali saroylardan tortib, oddiy aholi yashaydigan uylarni qurishda ham taxtadan foydalanilgan. Bu oʻz navbatida qadimgi xitoy meʼmorchiligida materiallardan foydalanishdagi yana bir oʻziga xos jihat hisoblangan.

木构架mùgòujià – taxtali sinch

Xitoy qadimgi meʼmorchilik yodgorliklariga oid atamalarni oʻrganar ekanmiz, biz shuni aniqladikki, eng qadimgi meʼmorchilikka oid yodgorliklar 木构架mùgòujià yaʼni taxtali sinchlar yordamida qurila boshlagan va bu hozirga qadar saqlanib qolgan. Bunday usulda qurilgan saroy, bino va uylarni xitoy meʼmorchiligida 木构架结构方式 mùgòujià jiégòu fāngshì yaʼni, taxtali sinchlar strukturasi usuli deb nomlashadi.

Xitoy me'morchiligida 木构架 *mùgòujià* ya'ni taxtali sinchlar yordamida quriladigan bino va uylarning ikki turi mavjud. Bu ikki tur 抬梁式 *tái liáng shì* va 穿斗式 *chuān dǒushì* terminlari bilan izohlanadi.⁴³

抬梁式 *tái liáng shì* – ko'tarilgan to'sin turi taxtali sinchlar yordamida bino qurish usulining bir turi bo'lib, bu tur Chuntsyu (春秋 *chūnqiū*) ya'ni bahor va kuz davridayoq⁴⁴ vujudga kelgan. Ushbu ko'tarilgan to'sin turi yordamida sinchlash usulining yaratilishida asosan, to'rtta yuqoriga qarata yo'naltirilgan to'sindan foydalaniladi, o'ng va chap tomonlaridagi ikki to'sin orqa va oldinda joylashgan ikki to'singa birlashtirilgan holda bitta xona yaratiladi. Xitoy qadimgi me'morchilik yodgorliklarining old tomoni keng bo'lgan, ichkariga tomon mos ravishda joylashtirilgan. Tomonlarning kengligi va ularning o'zaro joylashish o'rnidagi bo'shliqning o'lchami hamda o'ng va chapda, oldinda va orqada joylashgan ikki ustunning masofasi teng bo'lgan holda bitta xonani tashkil qilgan.

Taxtali ustunlar yordamida yaratiladigan binolarning qurilishidagi yana bir usul 穿斗式 *chuāndǒushì* deb ataladi. Bu usul ham 抬梁式 *tái liáng shì* ya'ni, ko'tarilgan to'sin turi kabi taxtali ustunlardan yaratilgan. Hamma tomondan ichkariga qarata chuqurlashib borgan hamda old tomoni keng bo'lgan. 抬梁式 *tái liáng shì* turidan farqi shundaki, bu turda xonalarni hosil qiladigan ustunlarning joylashish o'rnini nisbatan yaqin bo'ladi. Tayanch ustunlar yuqoriga tomon to'g'ri (gorizontal) yo'nalgan bo'lib, qolgan tayanchlar ushbu tayanch ustunlarning orasidan mos ravishda o'tadi. Osib qo'yiladigan ko'tarilgan ustunlardan foydalanish shart emas. Bino qavatlar har xil ustunlar yordamida huddi turli xilda "kiyinib" olgandek tusni oladi, bu esa umumiy sinchlarni

⁴³ 李金龙. 识别中国古建筑/著, 绘. - 上海: 上海书店出版社, 2008 年, 18 页。

⁴⁴ Chuntsyu (春秋 *chūnqiū* (bahor va kuz)) davri miloddan avvalgi 770 – 476 yillarda Xitoyda mavjud bo'lgan. 汉俄大词典/ 顾柏林主编. - 上海: 上海外语教育出版社, 2009 年, 2798 页。

tashkil qiladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, kichkina ustunlardan foydalangan holda, uni “穿 –chuān” ya’ni “kiyinmoq” so’zi bilan bevosita bog‘lab (bunda bino huddi kichkina bo‘lakchalar yordamida kiyinib olgandek tusni oladi), katta ustunga teng keladigan sinch devorlarni hosil qilishdir.⁴⁵

柱础zhùchǔ – devorning pastki qalinroq qismi (цоколь)

Ushbu atama Sun (宋sòng) sulolasi davrida tosh va toshga o‘xshagan qattiq materiallardan yasalgan me’morchilik yodgorliklarida qo‘llaniladigan element nomidan kelib chiqqan hamda ushbu atamaning 础chǔ – asos(fundament), 石礎shíding – toshli langar, 礧sang – ustun, fundament kabi sinonimlari mavjud. Chin (清qīng) sulolasi davrida esa ushbu 柱础zhùchǔ atamasi bilan atalgan bino materiali 柱顶石zhùdǐngshí, ya’ni ustunni quyi qismini ushlab turuvchi tosh bo‘lagi nomi bilan atalgan.

柱础zhùchǔ ning quyi qismi asosan to‘rtburchak shaklda bo‘lib, zinapoya asosining ichiga yoki uy ichidagi yerning tagiga o‘rnatiladi, yuqori qismidagi yaqqol ko‘zga ko‘rinib turuvchi qismi asosan, o‘ymakorlik yo‘li bilan ishlangan naqshli toshdan iborat bo‘ladi, bu toshlarga malina, turli xildagi nilufar gullar va boshqa gullarning sur‘atlari tushuriladi. O‘rtasi to‘liq o‘yilib bo‘shliq holatiga keltiriladi va ustun oyoqchalari shu bo‘shliqqa joylashtiriladi, shu tarzda 柱础zhùchǔ, ustunni mustahkam ushlab turish vazifasini bajaradi.⁴⁶

2. Xitoy me’morchiligida binoning yuqori (tom) qismi bilan bog‘liq atamalar

屋顶wūdǐng – bino tomi

Xitoy uylarining, binolarining butun ko‘rki, chiroyi katta tomlari bilandir. Ushbu tomlar o‘ziga xosligi bilan, turlarini ko‘pligi bilan G‘arb arxitektura

⁴⁵李金龙. 识别中国古建筑/著, 绘。- 上海: 上海书店出版社, 2008 年, 24 页。

⁴⁶王效清. 中国古建筑术语辞典。- 北京: 文物出版社, 2007 年, 292 页。

yodgorliklaridan tubdan farq qiladi.

斗拱(料拱 , 科拱) dǒu gǒng – yelkan, konsol (to‘sinning, balkaning devordan chiqib turgan va balkon, karniz, haykal singarilarni ko‘tarib turadigan qismi)

斗拱 dǒu gǒng, o‘zbek tiliga *yelkan* deb tarjima qilinadi. Xitoy me’morchiligida qadimdan keng qo‘llaniladigan hamda o‘zining betaktor ko‘rinishlari bilan mashxur bo‘lgan **斗拱 dǒu gǒng**, taxtadan quriladigan binolarda asosiy o‘rinni egallaydi.

斗拱 dǒu gǒng, Chin (清 qīng) sulolasi⁴⁷ davrida vujudga kelgan. Qadimgi xitoy me’morchilik yodgorliklarining barchasida o‘ziga xos ko‘rinishga va strukturaga ega bo‘lib, qurilishda tom bo‘g‘oti (сгpexa) ning quyi qismiga yoki to‘sin ilgaklari orasiga o‘rnatiladi. Tom qismida joylashgan ustunlarga o‘rnatiladigan, qavat – qavat qilib oldinga chiqarib qo‘yiladigan, yoysimon, ko‘tarib turuvchi konstruksiyaning nomi **拱 gǒng** (o‘zbek tilidagi qubba so‘ziga to‘g‘ri keladi) deb ataladi, **拱 gǒng** lar orasiga qo‘yiladigan to‘rtburchak shakldagi taxta bo‘lagi **斗 dǒu** deb ataladi. Bu ikki narsa birlashgan holda **斗拱 dǒu gǒng** ya’ni yelkansimon tom qismini tashkil qiladi va Xitoyda taxtadan yasalgan sinchli binolar ichida juda muhim o‘rinni egallaydi.⁴⁸ **斗拱 dǒu gǒng** ning vazifalari hamda ishlatilishida bir qancha usullar mavjud bo‘lib, bular: binoning ustunlari va cherdak to‘sinining bir – birini kesib o‘tish qismi hamda yuqorida joylashgan ustunlarni bog‘laydi, tomning og‘irligini; va shu og‘irlikni to‘sin ustiga tushishini; va yana ushbu og‘irlik tushgan to‘sinning og‘irligini asos

⁴⁷ Chin (清 qīng) sulolasi milodiy 1616 – 1911 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林。 - 上海：上海外语教育出版社，2009年，2798页。

⁴⁸ 现代汉语词典（第5版）/ 中国社会科学院语言研究所词典编辑室编。 - 北京：商务印书馆，2005年，330页。

(fundament) ga o‘tkazish (barcha og‘irlik asosga tushadi)ni ta’minlaydi; bir so‘z bilan aytganda, bog‘lovchi vazifasini bajaradi. 斗拱 *dǒu gǒng* tomning tagida joylashganligi sababli, binoning barcha ustuniyu, asosini, 台明 *táiming* (fundamentning yer yuzasiga chiqib turadigan qismi), devorlari va boshqalarni yomg‘ir va bo‘rondan himoyalash vazifasini ham bajaradi. Turli xildagi ranglar bilan bo‘yalib, bezatilgan 斗拱 *dǒu gǒng* binoga qo‘shimcha bezak beradi.⁴⁹

斗拱 *dǒu gǒng*ning yaratilishida asosiy element sifatida qo‘llaniladigan materiallar qatoriga yuqorida keltirib o‘tilgan 斗 *dǒu* va 拱 *gǒng*dan tashqari yana 昂 *áng*, 枋 *fāng*, 耍头 *shuǎ tóu* deb ataladigan materiallar ham kiradi, umumiy tarzda 斗拱 *dǒu gǒng* beshta elementdan tashkil topadi. Ushbu elementlar bilan tanishib chiqamiz.

昂 *áng* bu – katta taxta bo‘lagidan yasaladigan, 斗拱 *dǒu gǒng*ni yaratishda qo‘llaniladigan asosiy elementlardan biri. Asosan tashqi tomdagi 斗拱 *dǒu gǒng*ning o‘rtasidan kesib o‘tadigan, pastga tomon qiya qilib joylashtiriladigan, to‘g‘ri, uzun taxta bo‘lagi 昂 *áng* hisoblanadi.

Zamonaviy xitoy tilida ushbu 昂 *áng* atamasining ot so‘z turkumidagi ma’nosini uchratmaymiz. Ushbu atamaning hozirda fe‘l va sifat so‘z turkumiga oid ma’nolarini uchratamiz. Ushbu atama bilan bog‘liq bo‘lgan qadimgi me’morchiik yodgorliklarini yaratishda ishlatilgan predmet Tan (唐 *táng*) sulolasi⁵⁰ davrida vujudga kelgan. Vaqt o‘tishi bilan bu atama ot so‘z turkumidagi predmetlikni ifodalash ma’nosini yo‘qotib, faqatgina fe‘l

⁴⁹王效清。中国古建筑术语辞典。- 北京：文物出版社，2007年，79页。

⁵⁰ Tan (唐 *táng*) sulolasi milodiy 618 – 907 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林。- 上海：上海外语教育出版社，2009年，2798页。

(ko‘tarmoq, ko‘tarilmoq) va sifat (baland) turkumidagi ma’nolarini saqlab qolgan. (ot so‘z turkumida faqatgina familiya sifatida qo‘llaniladi.)

枋fāng bu – qadimiy kitoblarda tilga olingan daraxt nomi bo‘lib, ushbu daraxt taxtasini to‘rtburchak yoki to‘g‘riburchak shaklga keltiriladi va **斗拱dǒu gǒng** yaratishda ko‘ndalang qo‘yilgan to‘sin sifatida ishlatiladi.

耍头shuǎtóu bu – **斗拱dǒu gǒng**ning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, asosan, **昂áng** joylashgan joyning tepa qismida taxta bo‘lagini bir nechta joyini o‘yib chiqilgan taxtani joylashtirilishi **耍头shuǎtóu** ni tashkil etadi. Qadimgi Chin (清qīng) sulolasi⁵¹ davrida **耍头shuǎtóu** ni **蚂蚱头mázhā tóu**, ya’ni “chigirtkaning boshi” deb atashgan, chunki **斗拱dǒu gǒng**ning ushbu elementining uch qismi haqiqatdan ham chigirtkaning boshiga o‘xshaydi.

雀替quèti – “**araqi (shift bilan devor orasidagi bezakli taxta hoshiya), naqshinkor bezak**”. **雀替quèti** vertikal joylashgan ustun va gorizontal joylashgan to‘sinning kesishgan joyida joylashadi. Asosan tomning pastki qismida uchratamiz. Ikki ustun oralig‘ida bo‘shliq vujudga kelishidan saqlaydi, taxta ustunning og‘irligini ushlab turadi. **雀替quèti** Chin (清qīng) sulolasi davrida taxtadan yasalgan bezak elementi sifatida qo‘llanilgan, bu atama Sun (宋sòng)sulolasi⁵² davrida ham mavjud bo‘lib, u davrda **雀替quèti** atamasi bilan emas, faqatgina **替tì** atamasi bilan atalgan. **雀替quèti** ni yaratishda asosiy material sifatida binoni yaratishda asosiy material nima bo‘lsa, o‘sha

⁵¹ Chin (清 qīng) sulolasi milodiy 1616 – 1911 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林。 - 上海：上海外语教育出版社， 2009 年， 2798 页。

⁵² Sun (宋 sòng) sulolasi milodiy 960 – 1279 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林。 - 上海：上海外语教育出版社， 2009 年， 2798 页。

materialdan foydalaniladi. Masalan, qurilayotgan bino taxtadan bo'lsa, 雀替 *quètì* ham taxtadan yasaladi. Agarda bino qurilishida temir asosiy material bo'lsa, 雀替 *quètì* ham temirdan yasaladi.

雀替 *quètì* ning turli xillardagi ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ham turli atama bilan ataladi. Masalan, eng mashxurlari qatoriga 大雀替 *dàquètì* (katta araqi), 小雀替 *xiǎoquètì* (kichik araqi), 通雀替 *tongquètì* (umumiy araqi), 骑马雀替 *qí mǎ quètì* (ot minggan chavandoz nomli araqi), 龙门雀替 *lóng mén quètì* (ajdaho eshigi nomli araqi), 花牙子 *huā yá zǐ* (bo'rtib chiqqan gulli araqi) va boshqalar kiradi. Ulardan ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

大雀替 *dàquètì*: ushbu turdagi 雀替 *quètì* ni yaratishda katta taxta bo'lagidan foydalaniladi, yuqori qismi keng, ketma ket pastga tomon bo'lingan (bir – biridan ajratilgan holda) holatdagi taxta bo'laklarini joylashtirib chiqilgandan so'ng, eng quyi qismiga yana bir katta taxta bo'lagi bo'lmish 斗 *dǒu* joylashtiriladi, undan so'ng esa, ushbu taxtadan yasalgan qism yana birlashtirilgan holda, ustun tepasiga joylashtiriladi.

Xitoy tarixida 大雀替 *dàquètì* dan eng ko'p foydalanilgan davr Shimoliy Vei (北魏 *běiwei*) sulolasi⁵³ davri hisoblanadi. Qolgan davrlarda ushbu quetidan deyarli foydalanilmagan (Ba'zi Lamaizm binolarida ham uchraydi).

小雀替 *xiǎoquètì*: Ushbu turdagi 雀替 *quètì* asosan xona ichkarisiga o'rnatilgan, chunki hajmi kichik bo'lgan. Turli davrlarda deyarli birxil ko'rinishda saqlanib qolgan.

⁵³ Shimoliy Vei (北魏 *běiwei*) sulolasi milodiy 220 – 265 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林. - 上海：上海外语教育出版社，2009 年，2797 页。

龙门雀替 *lóng mén quèti*: ushbu **雀替** *quèti* turi maxsus **雀替** *quèti* turi bo‘lib, asosan, arkaning tepasiga bezak sifatida joylashtirilgan.

花牙子 *huāyázi* – **bo‘rtib chiqqan gulli araqi**: yana bir nomlanishi **挂落** *guàluò* (o‘zaro aloqadorlik) bo‘lib, bino qurilishida haqiqiy bezak vazifasini bajaradi. Kichkina, nozik, chiroyli ko‘rinishga ega. Asosan, bog‘larda qurilgan me‘morchilik yodgorliklarida ko‘plab ishlatiladi. Unda oshqovoq gulining, piongulning va boshqa gullarning suratlari tasvirlangan.

Xitoy qadimgi me‘morchilik yodgorliklarida tom qismi ming yillar davomida rivojlanib, hozirgi kunda quyidagi uch asosiy o‘ziga xosliklarga ega bo‘ldi, bular quyidagi atamalar bilan izohlanadi:

举折高大 *jǔzhé gāodà* – **baland ko‘tarilib qayrilgan ulkan tom.** **举折** *jǔzhé* me‘morchilikda qo‘llaniladigan, taxtadan tayyorlanadigan material atamasi bo‘lib, Sun (宋 *Sòng*) sulolasi davrida vujudga kelgan, u tomning balandligini va tomning qayrilgan chizig‘ini to‘g‘ri aniqlashtirishga yordam beruvchi usul hisoblanadi. Bu yerda **举** *jǔ*, tomning balandligi; **折** *zhé* esa, ketma – ket yuqoridan pastga tomon hajmi kichrayib boruvchi to‘g‘ri taxta bo‘lakchalari bo‘lib, u tomning qiya bo‘lishini ta‘minlab beradi.⁵⁴

出檐深远 *chūyán shēnyuǎn* – **ichkarilikda joylashgan karniz.** **出檐** *chūyán*, Chin (清 *qīng*) sulolasi davrida qo‘llanilgan atama bo‘lib, Sun (宋 *sòng*) sulolasi davrida **檐出** *yánchū* atamasi bilan atalgan. Bino tomining pastki qismiga (**橡头** *xiàngtōu* qismini berkitib turadi) o‘rnatiladigan qism hisoblanadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri karniz deb tarjima qilinadi.

翼角起翘 *yìjiǎo qǐqiào* – **tomning qanotsimon, ko‘tarilgan qismi.** Xitoy qadimgi me‘morchilik yodgorliklarini qurilishida karniz qismining nafaqat

⁵⁴王效清。中国古建筑术语辞典。- 北京：文物出版社，2007年，313页。

tashqi tomonga chiqib turishi, balki, uzunasiga joylashgan tomning to‘rt tomonidagi baland – baland qayrilib ko‘tarilgan qanotsimon ko‘rinishi ayniqsa diqqatga sazovordir. 翼角起翘 *yìjiǎo qǐqiào* ham, ayni shu qanotsimon ko‘tarilgan tom qismi ma’nolarini bildiradi.⁵⁵

Tomning quyidagi asosiy turlari mavjud:

庑殿 wǔ diàn – **hamma tomondan ibodatxona zallari bilan o‘ralgan ulkan bino.** Xitoy qadimgi me’morchiligida tom qismining eng yuqori, baland qilib qurilgan turi 庑殿 *wǔ diàn* deb ataladi. Bunda tom qismi oldi, orqa, o‘ng, chap kabi to‘rt tomonga ega. Oldi va orqa yonba‘g‘irlarida joylashgan qismlar birlashgan holda to‘g‘ri chiziq bo‘ylab joylashgan tom bo‘g‘oti (**正脊 zhèngjǐ** – to‘g‘ri joylashgan tom bo‘g‘oti)ni tashkil qiladi hamda oldi va orqa tomondan o‘ng va chap tomonda joylashgan qismlarga birlashgan holda to‘rt tomonli pastga qaragan tom bo‘g‘oti (**垂脊 chuíjǐ** – pastga qaragan tom bo‘g‘oti)ni tashkil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, 庑殿 *wǔ diàn* atamasining sinonimi sifatida **四阿顶 sìādǐng**, ya’ni, “to‘rt tomonli tepalik” atamasi ishlatiladi (四阿顶 *sìādǐng*, Sun (宋 *sòng*) sulolasi davrida vujudga kelgan atama).⁵⁶

歇山 xiēshān – “Uyqudagi tog‘” nomli tom. Xitoy qadimgi me’morchiligida yaratilgan va barpo etilgan tom qismining yana bir turi. Tashqi tomondan qaraganda yuqori va quyi qismga bo‘lingan, yuqori qismi ikki qiyalik ko‘rinishidagi 悬山 *xuán shān*, ya’ni “osma tog‘simon tomdan” iborat, quyi qismi to‘rt burchak shakldagi 庑殿 *wǔ diàn* – *hamma tomondan ibodatxona zallari bilan o‘ralgan ulkan bino* dan iborat.

⁵⁵李金龙. 识别中国古建筑/著, 绘。- 上海: 上海书店出版社, 2008 年, 70 页。

⁵⁶王效清. 中国古建筑术语辞典。- 北京: 文物出版社, 2007 年, 215 页。

悬山 xuán shān – osma tog‘simon tom. Yana bir nomlanishi **挑山 tiāoshān** ya’ni, “ko‘tarilgan “tog‘”, xitoy qadimgi me’morchilik yodgorliklarining tom qismining yana bir turini ifodalovchi atama bo‘lib, tomning oldi va orqa tomonlaridan ikki qiyalik tushishi natijasida hosil qilinadigan tom turi. Oddiy uylarning tomi aynan shu usulda quriladi.

Tomlarning yuqoridagi uch turidan tashqari yana, **单坡 dānpō**– yakka qayrilgan tom, **平顶 píngdǐng** – shift, **扇顶 shàn dǐng** – yelpig‘ichsimon tom, **万字 wàn zìdǐng** – o‘n ming so‘zli tom turlari ham mavjud bo‘lib, ular ham xitoy me’morchiligida tom qismini yaratishda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi.

Xitoy qadimgi inshootlarini tomosha qilib, zavq olayotganingizda, tomning ustida bir necha kichkina, ajoyib hayvonchalarni ko‘rishingiz mumkin, bu kichkina hayvonchalar baxt timsolidir. Bunday hayvonchalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

鸱吻 – chiwen (yana bir nomlanishi - 鸱尾 chiwei) – yarimbaliq yarimajdaho. Tomning eng yuqori qismida yashaydi. Chiwen – oddiy hayvon emas, u ajdahoning to‘qqiz o‘g‘illaridan biri. Xitoyning aholisi qadimdan uning oldida bosh egadi.

Uni dengiz hayvoni deb hisoblashadi, yomg‘ir chaqiruvchi va yomg‘ir bilan tuflovchi imkoniyati bor deb fikr yuritilganligi sababli ham, uni tomga o‘t o‘chiruvchilarning boshlig‘i qilib qo‘yishadi. Yong‘in bo‘lmaganda chiven zerikadi va o‘z o‘rnini tashlab ketishga harakat qiladi. Uni ushlab turish maqsadida, yelpig‘ich shaklidagi shamshir bilan konkaga mixlab qo‘yiladi. Rivoyatlarga qaraganda, shamshir Qing davri daochiligiga tegishli bo‘lgan va yovuz kuchdan saqlagan. Ajdahoning tanasidagi shamshir, tanasidan tashqaridagiga qaraganda ko‘proq yovuz kuchlarni esankiratib qo‘yar ekan. Ba‘zan chivenni ko‘p yarusli konstruksiyalarda ko‘rish mumkin, u yerda pastli yarusning konkasi devorga tiralgan bo‘ladi. Xitoyning janubida va Yaponiyada

chivenni farqini baliqdan ajratib bo‘lmaydi, buni konkaga yopishgan o‘tkir tishlari bildirib turadi. Bu turdagi chivenni “ baliq dumli ven” deb atashadi.⁵⁷

望兽 – wangshou – “kuzatuvchi hayvon” – chiwenning o‘rnini oddiyroq binolarning tomlarida egallaydi; shahar devorlarining minoralarida, darvozalarda yoki do‘konlarda uchratish mumkin.

Chiwendan farqli jihati shundaki, u yuzi bilan tashqariga qaratilgan va ikkita shoxi bor, oldinga egilgan. Uning vazifasi dushmani shoxlab, qorovullik qilishdir.

垂兽 – chuishou – wangshouning kichik nusxasi, u o‘ng tomondagi mudofaaga mas’ul, “quruqlik hayvonlari ” otryadining qo‘riqchisi. Uni faoliyati uchun emas, yashash joyi sababli “tomning qovurg‘asida, yonboshida, yassiligida yashovchi hayvon” deb atashadi. Uning vazifasi uyni dushmanlardan qo‘riqlash. Mahfiy vazifasi – tagida joylashgan qoziq oyoqning yuqori uchini chuishou o‘zining bo‘sh qornida yashirib turadi.

戢兽 – qiangshou – “ikki kornizli tomning qovurg‘asida yashaydigan hayvon”. Ikki kornizli deb, ikki qavatli tom tushuniladi. Bir xil tzyanshoular sherlarga o‘xshaydi, boshqalari ajdaholarga o‘xshaydi, ba’zilari esa yuqorida aytganimiz kabi “kuzatuvchi hayvonga” o‘xshaydi. Irjaygan vaximali ko‘rinishi bilan chaqirilmagan mehmonlarni qo‘rqitadi.

走兽 – zoushou- “ sopol tomdagi hayvonlar ”, “tomning qiya qovurg‘asida tizilib tushayotgan” quruqlik hayvonlari.

Ularning bir yaxlitdagi yig‘indisi to‘qqiz hayvon va bir yo‘lboshchisi tashkil qiladi, binoning turi va egasining mashxurligiga qarab variantlar bo‘lishi mumkin. Masalan, imperator qarorgohi tomida yettita yoki to‘qqizta hayvonni, ibodatxona va ma’muriy binolarda uch, to‘rt, ularga qo‘shimcha binolarda undan ham kam hayvonlarni ko‘rish mumkin.

⁵⁷王大有。中华龙种文化。- 北京：中国时代经济出版社，2006.

3.Xitoy me'morchiligida ishlov berish (pardozlash) bilan bog'liq atamalar

Qadimgi inshootlarning asos qismi, sinchlash qismi va tom yopish qismi bitirilgandan so'ng, navbat, nisbatan kichik bo'lgan taxta materiallari bilan ishlov berishga keladi ya'ni, **装修***zhuāngxiū* ga (**装修***zhuāngxiū* Sun (宋sòng) sulolasi davrida **小木作***xiǎomùzuò*, ya'ni kichik taxtalardan yasash deb nomlangan). **装者***zhuāngzhě*, ya'ni pardozlovchi binoni bezatadi, chiroyli va ko'rkam ko'rinishga keltiradi. Pardozlash natijasida binoning foydalanish darajasi oshadi.

Pardozlash ikki qismdan iborat: tashqi va ichki pardozlash. Birinchisiga, inshootning tashqi tomonida joylashgan **panjara**(**栏杆***lángān*), **eshik**(**门***mén*), **deraza**(**窗***chuāng*), **qiang** – **devor** va boshqalarning o'rnatilish kirsas, ikkinchisiga esa, uy ichiga **devordagi gulli jild**(**罩***zhào*)ni o'rnatish, **shiftni bezatish**(**天花***tiānhuā*) kiradi. Bulardan tashqari, inshootning taxtali materiallarini yaxshi saqlash va ko'rkam qilish maqsadida **rangli bezaklar** ya'ni **彩饰***cǎishì* dan foydalaniladi.

门mén – eshik

Hamмамizga ma'lumki, eshiklar binoning kirib chiqish joyidagi bo'sh joyga o'rnatiladi va tashqi va ichki tomonlarni birlashtirib turadi. Ba'zi bir eshiklarda faqat eshikning o'rnigina bo'lib, bu turdagi eshiklar arava, ot kabilarning kirib chiqish uchun mo'ljallangan bo'ladi; ba'zi eshiklar esa yelpig'ichsimon bo'lib, tashqi va ichkari tomonlarni ajratib turish uchun qo'llaniladi. Xitoy qadimgi me'morchiligida eshiklarning tarixi juda qadimga borib taqaladi. Henan provinsiyasining Anyan shahridagi binolarda aynan **门mén** iyeroglifiga o'xshash yozuvlar topilgan. Sun (宋sòng) sulolasi davrida yozilgan manbalarda

quyidagi atamalar bilan ataladigan eshik turlari mavjud bo‘lgan: **板门** *bǎnmén* (yupqa taxtadan yasalgan eshik), **乌头门** *wūtóumén* (kurashuvchi eshik), **格子门** *gégzimén* (panjarali eshik) va boshqalar.

Xitoy qadimgi me'morchiligidan ma'lum bo'lishicha, shahar ichiga kirib chiqish joyiga o'rnatiladigan eshiklar **城门** *chéngmén* ya'ni, *shahar darvozasi*, budda ibodatxonasiga kirish chiqish joyidagi eshiklar **山门** *shānmén* ya'ni, *tog' eshigi*, saroylarda bezak o'rnida foydalaniladigan eshiklar **板门** *bǎnmén* (yupqa taxtadan yasalgan eshik), **隔扇** *géshānmén* (to'siqli yelpig'ichsimon eshik), **格子门** *gégzimén* (panjarali eshik) deb nomlangan.

窗 *chuāng* – deraza, oyna

Asosan, binoning devoriga o'rnatiladi va havo almashinishini yaxshilash, uyga nur kirishi uchun ishlatiladi. Sun (宋 Song) sulolasi ⁵⁸ davrida yozilgan "Qurilish qonun qoidolari" ("营造法式" *yíngzàofǎshì*) asarida ⁵⁹ **窗** *chuāng* ya'ni, deraza, kichik taxta bo'laklaridan ishlab chiqariladigan uy materiali, oyna romlari hamda oyna panjaralaridan tashkil topadi, deb ta'riflangan. Xitoy me'morchiligida deraza oynaning quyidagi terminlar bilan ataluvchi turlari mavjud: **板棧窗** *bǎnlíngchuāng* (taxta panjarali deraza oyna), **破子棧窗** *pòzǐlíngchuāng* (qirqimlardan yasalgan panjarali deraza), **睺电窗** *shǒudiànchuāng* (so'zma so'z tarjimasi: miltillagan chaqmoqsimon deraza

⁵⁸ Sun (宋 sòng) sulolasi milodiy 960 – 1279 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林。 - 上海：上海外语教育出版社，2009年，2798页。

⁵⁹ "Qurilish qonun qoidolari" ("营造法式" *yíngzàofǎshì*) asari Xitoyda paydo bo'lgan ilk me'morchilik terminologiyasiga oid asar bo'lib, bu asar Shimoliy Sun (北宋 běisòng) (milodiy 960 – 1127 yillar) davrida yozishni boshlangan va to'rt yil davomida yozilib, 1097 – yilda yozib tugatilgan. 1100 – yilda kitob shaklida nashrdan chiqarilgan. 中国古建筑术语辞典/ 王效清。 - 北京：文物出版社，2007年，357页。

oyna) va boshqalar.

Xitoy qadimgi me'morchiligidan ma'lum bo'lishicha, Xitoyda oynaning paydo bo'lishi ancha uzoq davrlarga borib taqaladi. G'arbiy Chjou(西周 xīzhōu) sulolasi⁶⁰ davridagi bronzadan ishlangan buyumlarda va Urush olib boruvchi podshohliklar (战 国 zhànguó) davri⁶¹ dagi taxtadan yasalgan tobutlarda kataksimon(方 格 窗 fānggéchuāng) va romb(斜 方 格 窗 xié fānggéchuāng) shaklidagi oyna bo'laklarini uchratishimiz mumkin. Xan (汉 hàn) sulolasi⁶² davrida 花格鼻子窗 huāgé bízichuāng ya'ni, gulli katakchalardan iborat bo'lgan deraza oynalar urf bo'lgan bo'lsa, Tan va Sun sulolalari davrida 直棂窗 zhí líng chuāng (to'g'ri panjarali deraza oyna), 破子棂窗 pò zǐ líng chuāng (qirqimlardan yasalgan panjarali deraza) va boshqalar ko'p qo'llanilgan.⁶³

栏杆 lángān – panjara, suyanchiq, to'siq

Xitoy qadimgi me'morchiligida vujudga kelib to hozirga qadar himoyalash vazifasini bajaruvchi bino qismi 栏杆 lángān (panjara) atamasi bilan ataladi. Baland qilib qurilgan binolarning tomlarida, ikkinchi qavatidagi ochiq maydonchalarda 扶手栏杆 fúshǒu lángān ya'ni, tutqichli panjaralarni ko'p uchratamiz. 栏杆 lángān ning turlari juda ko'p bo'lib, asosan taxta yoki nefrit toshi va boshqa qimmatbaho tosh materiallaridan yasaladi.

⁶⁰G'arbiy Chjou (西周 xīzhōu) sulolasi miloddan avvalgi 1046 – 771 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林。 - 上海：上海外语教育出版社，2009年，2797页。

⁶¹Urush olib boruvchi podshohliklar (战 国 zhànguó) davri miloddan avvalgi 475 – 221 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林。 - 上海：上海外语教育出版社，2009年，2797页。

⁶²Xan (汉 hàn) sulolasi miloddan avvalgi 206 – va milodiy 220 – yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan. 汉俄大词典/ 顾柏林。 - 上海：上海外语教育出版社，2009年，2797页。

⁶³李金龙. 识别中国古建筑/著，绘。 - 上海：上海书店出版社，2008年，116页；王效清. 中国古建筑术语辞典。 - 北京：文物出版社，2007年，427页。

罩子zhàozǐ – yopinchiq. Yana bir nomlanishi **罩头zhàotou** deb ataladi. Uy ichidagi bo'sh joyni ajratib ko'rsatib turuvchi qismi hisoblanadi. Asosan uyni kirish qismiga yoki bir xonadan ikkinchi xonaga o'tish yo'liga o'rnatiladi. O'ymakorlik yo'li bilan yaratiladi. Yopinchiqlarga tushiriladigan rasmlar turli xilda, rang barang bo'lib, xonaga ko'rk bag'ishlashga xizmat qiladi.

天花tiānhuā – shiftdagi bezaklar

Qadimda 仰尘yǎngchén, 平暗(闇) píngàn terminlari bilan atalgan. Uy ichi yoki koridor (yo'lak) dagi shiftga joylashtiriladi. Rang – barang gullar, ajdaho, qaqnus, buddizmga oid gaplar bitilgan rasmlar katta, yupqa taxta bo'lagining shiftga yopishtirilishi natijasida **天花板tiānhuābǎn** ya'ni bezakli shift vujudga keladi.

墙qiáng – devor

Xitoy tilida devor **墙qiáng** atamasi bilan ataladi. Devorning xususiyati va joylashish o'rniga ko'ra quyidagi atamalar bilan ataluvchi turlari mavjud: **檐墙yán qiáng** (tom bo'g'oti devori), **槛墙kǎnqiáng** (ostona devori), **围墙wéiqiáng** (to'siq devor), **照壁zhàobì** yoki **照墙zhàoqiáng** (binoga kirish yo'lidagi to'siq devor (tosh yoki g'ishtdan quriladi)), **隔断墙géduàn qiáng** (bo'lingan devor) va boshqalar.

檐墙yán qiáng – tom bo'g'oti devori

Qadimgi me'morchilikda keng qo'llanilgan devor qismining bir turi bo'lib, tom bo'g'otining obreshetka (обрешетка) taxtasining quyi qismida joylashadi, ustunlar orasidagi *himoyalovchi devor* hisoblanadi. Struktura jihatidan o'ziga umuman og'irlik olmaydigan devor turi hisoblanadi.

槛墙kǎnqiáng – ostona devori

Me'morchilik yodgorliklarining oldingi yoki orqa bo'g'otlaridagi taxtadan yasalgan joyning ostidagi devor qismi. Asosan, moviy yoki yashil tusdagi g'ishtdan quriladi; ustki qismiga sirli (yaltiroq) g'ishtlar yopishtiriladi. Pekindagi Gugong imperator saroyi va Tiantan – Osmon ibodatxonasida ham “ostona devori” da yaltiroq g'ishtlar yopishtirilganini uchratish mumkin.⁶⁴

照壁zhàobì – binoga kirish yo‘lidagi to‘siq devor

照壁zhàobì so‘zining sinonimlari sifatida 树屏shùpíng, 照墙zhàoqiáng, 影墙yǐngqiáng atamaları ishlatiladi. Asosan hovli eshigidan ichkarida joylashadi, hovli eshigidan oldinroqda joylashadiganlarini ham uchratish mumkin. Asosan, binoning oldi tomonidagi pana joy vazifasini bajaradi, binoga hashamatli ko‘rk va bezak ufurini bag‘ishlaydi hamda yo‘lovchilarning hovlining ichkarisiga nazar tashlashlariga yo‘l qo‘ymaydi. Va yana, hovli ichkarisiga kirmoqchi bo‘lgan odamga ozgina to‘xtab nafasini rostlab olish uchun yaratilgan joy ham hisoblanadi.⁶⁵

隔断墙géduànqiáng – bo‘lingan devor

Binoning ichki qismida joylashgan devor turlaridan biri. Yana bir sinonimi 架山jiàshān deb nomlanadi. Oldingi va orqadagi bo‘g‘ot ustunlari o‘rtasida joylashadigan devor turi.

2.2. Atamalarning ekstralingvistik omillarga ko‘ra guruhlariga ajratilishi

Atamaning ma’nosi o‘zgarishi ikki omilga ko‘ra yuzaga keladi: ekstralingvistik (masalan, ijtimoiy hodisalar so‘z ma’nosini siljishiga sabab bo‘la oladi) va lingvistik (masalan, atamaning ma’lum bir so‘z guruhlari bilan muvofiq kelishining ortishi natijasida atamada ma’no o‘zgarishi oshadi)⁶⁶.

Tadqiqot jarayonida to‘plangan 108 ta atama ekstralingvistik omilga ko‘ra

⁶⁴王效清。中国古建筑术语辞典。- 北京：文物出版社，2007年，458页。

⁶⁵Qarang: ko‘rsatilgan adabiyot – 443 b.

⁶⁶Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV в.в.: док. дисс. филол. наук. автореф. – Т., 1992.–С.52.

o‘zaro tematik jihatdan 3 guruhga bo‘linadi. Bular: *bino asosi va sinch qismi bilan bog‘liq atamalar guruhi*, *Xitoy me‘morchiligida binoning yuqori (tom) qismi bilan bog‘liq atamalar guruhi hamda Xitoy me‘morchiligidaishlov berish (pardozlash) bilan bog‘liq atamalar guruhi* dan iborat.

Bino asosi va sinch qismiga oid atamalar guruhiga quyidagilar kiradi:

台基 táijī – asos (fundament);

梁柱构架 liángzhù gòujià – to‘sin, ustunli sinch;

木构架 mùgòujià – taxtali sinch;

柱础 zhùchǔ – devorning pastki qalinroq qismi (цоколь).

Ushbu guruhga mansub atamalar o‘z ichida yana guruhlarga bo‘linadi. Bu guruhlarni quyida ko‘rib chiqamiz:

台基 táijī – asos (fundament) bilan bog‘liq atamalar :

1. asosning yer ostidagi qismi “埋深” máishēn yoki “埋头” máitóu;
2. yer ustida yaqqol ko‘rinib turadigan qismi “台明” táimíng;
3. 方形台基 fāngxíng táijī ya’ni, kvadrat shaklidagi asos(fundament);
4. 须弥座台基 xūmízuòtáijī va boshqalar.

梁柱构架 liángzhù gòujià – to‘sin, ustunli sinch guruhiga kiruvchi atamalar:

1. 梁柱 liángzhù - ustun – to‘sin;
2. 格扇 géshàn - tavaqali pardevor;
3. 骨架 gǔjià – sinch; 4. 构架 gòujià – sinch.

木构架 mùgòujià – taxtali sinch guruhiga kiruvchi atamalar:

1. 抬梁式 tái liáng shì – ko‘tarilgan to‘sin turi;

2. 穿斗式 chuāndǒushì – kichik taxta bo‘laklari yordamida kiyinish turi.

柱础 zhùchǔ – devorning pastki qalinroq qismi (цоколь) bilan bog‘liq atamalar:

1. 础 chǔ – asos(fundament);

2. 石碇 shíding – toshli langar;

3. 礅 sang – ustun, fundament;

4. 柱顶石 zhùdǐngshí–ustunni quyi qismini ushlab turuvchi tosh bo‘lagi.

Xitoy me’morchiligida binoning yuqori (tom) qismi bilan bog‘liq atamalar guruhiga quyidagi atamalar kiradi:

a) 屋顶 wūdǐng – bino tomi;

b) 斗拱(科拱，科栱) dǒugǒng – yelkan;

c) 雀替 quèti naqshinkor bezak;

d) 举折高大 jǔzhé gāodà – baland ko‘tarilib qayrilgan ulkan tom;

e) 出檐深远 chūyán shēnyuǎn – ichkarilikda joylashgan karniz;

f) 翼角起翘 yìjiǎo qǐqiào – tomning qanotsimon,ko‘tarilgan qismi.

屋顶wūdǐng – bino tomi bilan bog‘liq atamalarga quyidagilar kiradi:

1. 庑殿 wǔdiàn – hamma tomondan ibodatxona zallari bilan o‘ralgan ulkan bino;

2. 歇山 xiēshān – “Uyqudagi tog‘” nomli tom;

3. 悬山 xuán shān – osma tog‘simon tom;

4. 单坡 dānpō – yakka qayrilgan tom;
5. 平顶 píngdǐng – shift;
6. 扇顶 shàndǐng – yelpig‘ichsimon tom;
7. 万字顶 wànzìdǐng – o‘n ming so‘zli tom.

斗拱(料拱 , 料栱) dòugǒng – yelkan bilan bog‘liq atamalar:

1. 拱 gǒng – qubba; 2. 斗; 3. 昂 áng; 4. 枋 fāng; 5. 耍头 shuǎ tóu (蚂蚱头)

雀替 quèti – araqi bilan bog‘liq atamalar:

1. 大雀替 dàquèti (katta quèti); 2. 小雀替 xiǎoquèti (kichkina quèti); 3. 通雀替 tongquèti (umumiy quèti); 4. 骑马雀替 qíma quèti (ot minggan chavandoz nomli quèti); 5. 龙门雀替 lóng mén quèti; 6. 花牙子 huāyázi.

鸱吻 – [chiwen] yarim baliq yarimajdaho. Tomning eng yuqori qismida yashaydigan ilohiy hayvon nomi”.

望兽 – [wangshou] “kuzatuvchi hayvon”

垂兽 – [chuishou] “wang shouning kichik nusxasi, u o‘ng tomondagi mudofaaga mas’ul, “quruqlik hayvonlari ” otryadining qo‘riqchisi”

戗兽 – [qiangshou] “ikki kornizli tomning qovurg‘asida yashaydigan hayvon”

走兽 – [zoushou] “tomning qiya qovurg‘asida tizilib tushayotgan” quruqlik hayvonlari”

Xitoy me’morchiligida ishlov berish (pardozlash) bilan bog‘liq atamalar guruhiga quyidagilar kiradi:

- a) 装者 zhuāngzhě – pardozlovchi;

- b) 栏杆 lángān – panjara;
- c) 门 mén–eshik;
- d) 窗 chuāng–deraza;
- e) 墙 qiáng – devor;
- f) 罩 zhào–yopinchiq;
- g) 天花 tiānhuā–shift bezagi;
- h) 彩饰 cǎishì–rangli bezaklar.
- i) 装修 zhuāngxiū – bezak berish, pardoqlash;

门 mén–eshik bilan bog‘liq atamalarga quyidagilar kiradi:

1. 板门 bǎnmén (yupqa taxtadan yasalgan eshik);
2. 乌头门 wūtóumén (so‘zma so‘z tarjimasi: qarg‘a boshli eshik);
3. 格子门 gézimén (panjarali eshik);
4. 城门 chéngmén – shahar darvozasi;
5. 山门 shānmén–tog‘ eshigi;
6. 隔扇门 géshànmén (to‘siqli yelpig‘ichsimon eshik).

窗 chuāng–deraza bilan bog‘liq atamalarga quyidagilar kiradi:

1. 板棂窗 bǎnlíngchuāng (taxta panjarali deraza oyna);
2. 破子棂窗 pòzǐlíngchuāng (qirqimlardan yasalgan panjarali deraza);
3. 电窗 shāndiànchuāng (so‘zma so‘z tarjimasi: miltillagan chaqmoqsimon deraza oyna);

4. 花格鼻子窗 huāgébízüchuāng gulli katakchalardan iborat bo‘lgan deraza oyna; 5. 直棂窗 zhí líng chuāng (to‘g‘ri panjarali deraza oyna).

墙qiáng – devor bilan bog‘liq atamalarga quyidagilar kiradi:

1. 檐墙 yán qiáng (tom bo‘g‘oti devori);
2. 槛墙 kǎnqiáng (ostona devori);
3. 围墙 wéiqiáng (to‘siq devor);
4. 照壁 zhàobì yoki 照墙 zhàoqiáng (binoga kirish yo‘lidagi to‘siq devor);
5. 隔断墙 géduàn qiáng (bo‘lingan devor).

Ko‘rib turganimizdek, ekstralingvistik omilga ko‘ra tahlil qilingan atamalar misolida shuni aytish mumkinki, xitoy tilida me‘morchilik atamalarini asosan 3ta tematik guruhni ajratish mumkin, ular o‘z navbatida kichik guruhlarga bo‘linib ketadi, ishlatiladigan xom – ashyo, uskuna, xarakteriga qarab turlanadi.

2.3. Atamalarning asl lingvistik omillarga ko‘ra guruhlarga ajratilish

tahlili

Asl lingvistik omilga ya‘ni ma‘no jihatdan atamalarning o‘zgarganlik va o‘zgarmaganlik holatlariga ko‘ra tadqiqot doirasidagi atamalar *ma‘no torayishi, kengayishi, ko‘payishi, ma‘noni asl holatda saqlab qolishi va ma‘noni umuman o‘zgarishi kabi* guruhlarga ajratildi:

Tadqiqot jarayonida ma‘no torayishi holati 47 ta atamada kuzatildi:

Ma‘nosi, me‘morchilikda ishlatilish doirasi toraygan, lekin hozirgi zamon xitoy tilida mavjud bo‘lgan atamalar 12ta:

方形台基 – [fāngxíng táijī] “kvadrat shaklidagi asos(fundament)”,

须弥座台基 – [xūmízuòtái] Buddha haykallari asosi, budda ibodatxonasi asosi.

梁柱 – [liángzhù] “ustun – to‘sin”.

斗拱(料拱, 料栱) – [dǒu gǒng] “yelkan (парык)”.

花牙子 – [huāyázi] “bo‘rtib chiqqan gulli araqi”. Hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, lekin to‘liq shaklda emas. 牙子 – burma, bo‘rtiq, do‘ng ma’nolarini anglatadi.

飞屋檐 – [fēiwūyán] “yuqoriga qayrilgan karniz”.

曲线屋顶 – [qūxiànwūdǐng] “qiyshtaygan tom”.

格子门 – [gélímén] “panjarali eshik”.

城门 – [chéngmén] – “shahar darvozasi”.

隔扇门 – [géshànmén] “ikki yoqqa ochiladigan eshik”.

梁柱构架 – [liángzhù gòujià] “to‘sin, ustunli sinch strukturasi”, “struktura”

atamasi [goujia] bilan bir qatorda 结构[jiegou] atamasi ham birga keladi,

木构架 – [mùgòujià] “taxtali sinch”.

Ma’nosi, me’morchilikda ishlatilish doirasi toraygan, hozirgi zamon xitoy tilida mavjud bo‘lmagan atamalar 35ta:

台明 – [táimíng] “asosning yer ustida yaqqol ko‘rinib turadigan qismi”,

石碁 – [shídíng] “toshli langar”,

耍头 – [shuǎ tóu] hozirgi zamon xitoy tilida mavjud emas, lekin uning sinonimi

蚂蚱头- [mázha tou] mavjud , mazha chigirtka ma'nosida ishlatiladi.

雀替 – [quèti] “araqi (shift bilan devor orasidagi bezakli taxta hoshiya), naqshinkor bezak”,

大雀替 – [dàquèti] “katta araqi”,

小雀替 – [xiǎoquèti] “kichkina araqi”,

通雀替 – [tongquèti] “umumiy araqi”,

骑马雀替 – [qíma quèti] “ot minggan chavandoz nomli araqi”,

龙门雀替 – [lóng mén quèti] “ajdaho eshigi nomli araqi”,

乌头门 – [wūtóumén] “kurashuvchi eshik” ,

板棂窗 – [bǎnlíngchuāng] “taxta panjarali deraza oyna”,

破子棂窗 – [pòzílíngchuāng] “qirqimlardan yasalgan panjarali deraza”,

睽电窗 – [shāndiànchuāng] so‘zma so‘z tarjimasi: “miltillagan chaqmoqsimon deraza oyna”,

花格鼻子窗 – [huāgébízichuāng] “gulli katakchalardan iborat bo‘lgan deraza oyna”,

檐墙 – [yán qiáng] “tom bo‘g‘oti devori”, 槛墙 – [kǎnqiáng] “ostona devori”,

围墙 – [wéiqiáng] “to‘siq devor”,

照壁– [zhàobì] “binoga kirish yo‘lidagi to‘siq devor”,

隔断墙 – [géduàn qiáng] “pardevor”,

直棂窗– [zhílíngchuāng] “to‘g‘ri panjarali deraza oyna”,

垂兽 – [chuishou] “wangshouning kichik nusxasi, u o‘ng tomondagi mudofaaga

mas'ul, "quruqlik hayvonlari " otryadining qo'riqchisi",

戕兽 – [qiangshou] "ikki kornizli tomning qovurg'asida yashaydigan hayvon",

举折高大 – [jǔzhé gāodà] "baland ko'tarilib qayrilgan ulkan tom",

出檐深远 – [chūyán shēnyuǎn] "ichkarilikda joylashgan karniz",

翼角起翘 – [yìjiǎo qǐqiào] "tomning qanotsimon,ko'tarilgan qismi".

Ma'no kengayishi 2ta atamada kuzatildi:

屋脊 – [wūjǐ] "tom qirradi" hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. M: 帕米尔高原是世界屋脊 – [Pa mi er gaoyuan shi shijie wuji] "Pomir – "dunyo tomi"dir".

墙 – [qiáng] – "devor" hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, boshqa soha ya'ni devori, yuzasi bor bo'lgan so'zlar bilan ham birga ishlatiladi. M: 炉墙 – [Lu qiang] "pechka devorlari".

Ma'no ko'payishi 8ta atamada kuzatildi:

骨架 – [gǔjià] "sinch" hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, sinch ma'nosidan tashqari, "skelet", "gavda suyaklari", "negiz" ma'nolarida ham ishlatiladi. M: 这猪的骨架大 – [zhe zhude gujia da] "bu cho'chqaning gavda suyaklari keng".

Ushbu atama hozirda faqatgina bino qurilishida emas, balki boshqa soha atamalari bilan ham ishlatiladi: 飞船的骨架 – [feichuang de gujia] "dirijabl karkasi".

构架 – [gòujià] "sinch" hozirgi zamon xitoy tilida konstruksiya, struktura, kompozitsiya ma'nolarida ham qo'llanadi. M: 作品构架 – [zuopin goujia] "asar strukturalari".

拱 – [gǒng] “qubba”, hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, salomlashish (qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish), o‘rab olmoq, qurshab olmoq, egmoq, bukmoq, qayirmoq. arka, ravoq, gumbaz ma’nolarida ham ishlatiladi. M: 众星拱月 – [zhong xing gong yue] “oy yulduzlar qurshovida”, 拱着背 – [gong zhe bei] “beli egik”, 拱手告别 – [gongshou gaobie] “qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib vidolashmoq”.

门 – [mén] – “eshik” hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, keng qo‘llaniladi. Kirish yo‘li, yo‘lak, qulf, zanjir, yo‘l, usul, oila, sulola, avlod, maktab, sekta, soha, ixtisos, mutaxassislik, tip, usul, tur ma’nolari ham mavjud.

罩 – [zhào] “devordagi gulli jild”, hozirda mavjud, lekin “zi” suffiksi bilan birga ishlatiladi. Yolg‘iz o‘zi o‘ramoq, yopmoq, abajur, tovuq uchun katak, qalpoq, ustki kiyim, to‘r (baliq tutadigan to‘r) ma’nolarida ham ishlatiladi.

天花 – [tiānhuā] “shift bezagi” hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, me’morchilikda [tianhua ban] “shift” ma’nosida ishlatildi. Undan tashqari, tibbiyotda “suvchechak” ma’nosida ham ishlatiladi.

板门 – [bǎnmén] “yupqa taxtadan yasalgan eshik” hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, “taxtali shit (do‘kon eshigi uchun)” ma’nosida ham ishlatiladi.

山门 – [shānmén] “buddizm ibodatxonasi darvozasi” hozirda “buddizm dini” ma’nosida ham ishlatiladi.

Ma’no umuman o‘zgarganlik holati 6 ta atamada kuzatildi:

台基 – [táijī] “asos (fundament)” atamasining o‘rniga hozirgi zamon xitoy tilida 基础 – [jīchū], 地基 – [dìjī] atamasi ishlatiladi. 台基 atamasida ma’no umuman o‘zgarganlik holati kuzatiladi ya’ni hozirda bu atama “platforma” ma’nosida ishlatiladi.

埋头 – [máitóu] “asosning yer ostidagi qismi” atamasi hozirgi zamon xitoy

tilida o‘z ma’nosini umuman o‘zgartirgan, ya’ni ushbu atama hozirda “biror bir ish – harakatga boshi bilan sho‘ng‘ib ketish” ma’nosida qo‘llanadi. M: 埋头工作 – [maitou gongzuo] “ishga boshi bilan sho‘ng‘ib ketgan”, hozirdagi sinonimi 埋首 – [maishou] dir .

庀殿 – [wǔ diàn] “Xitoy qadimgi me’morchiligida bino tomining baland qismi”.

Hozirgi zamon xitoy tilida ushbu atama “hamma tomondan ibodatxona zallari bilan o‘ralgan ulkan bino” ma’nosida ishlatiladi.

斗 – [dou] “qadimgi xitoy me’morchilik yodgorliklarida qo‘llanilgan to‘rtburchak shakldagi kichik taxta bo‘lagi”. Hozirgi zamon xitoy tilida sochiluvchan maxsulotlar uchun 10 litrga teng og‘irlik o‘lchov birligi, cho‘mich, yog‘log‘i shaklidagi predmet ma’nolarida qo‘llanadi.

昂 – [áng] “katta taxta bo‘lagidan yasaladigan, bino qurishda ishlatiladigan elementlardan biri”. Hozirda yuqoriga ko‘tarilmoq, ko‘tarmoq ma’nosida ishlatiladi. M: 昂着头 – [ang zhe tou] “boshini ko‘tarmoq, boshi ko‘tarilgan holatda”.

橡 – [xiàng] “stropil (cherdak to‘sini)” hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, lekin ma’nosi umuman o‘zgargan, hozirda dub, fikus (hamisha ko‘m- ko‘k turadigan yalpoq bargli kauchuk tropik o‘simlik) ma’nolarida ishlatiladi.

Ma’nosi o‘zgarmay qadimda qanday bo‘lsa, shundayligicha qolgan atamalar
45ta:

彩饰 cǎishì – rangli bezaklar,

装修 – [zhuāngxiū] – “bezak berish, pardoqlash”,

装者 – [zhuāngzhě] – “pardozlovchi”,

栏杆 – [lángān] – “panjara”,

鸱吻 – [chiwen] “yarimbaliq yarimajdaho. Tomning eng yuqori qismida yashaydigan ilohiy hayvon nomi”,

枋 – [fāng] “to‘rtburchak yoki to‘g‘riburchak shakldagi yog‘och, xoda, to‘sin, ko‘ndalang to‘sin”,

平顶 píngdǐng – shift,

抬梁式 – [tái liáng shì] “ko‘tarilgan to‘sin usuli”,

穿斗式 – [chuāndǒushi] “kichik taxta bo‘laklari yordamida kiyinish usuli”,

础 – [chǔ] “asos(fundament)”, hozirgi zamon xitoy tilida mavjud. M: 础润而

雨 – [shirun er yu] “binoning toshli fundamenti namlansa, bu yomg‘ir yog‘ishidan darak beradi”,

礲 – [sang] “ustun, fundament, sokol”,

柱顶石 – [zhùdǐngshí] “ toqi ravoqni (ustunning shipga tutashadigan yuqori qismi) ushlab turuvchi tosh bo‘lagi”,

柱础 – [zhùchǔ] “devorning pastki qalinroq qismi (цоколь)” hozirda ushbu atamaning o‘rniga 柱石 - [zhushi] atamasi nisbatan ko‘proq qo‘llanadi.

飞屋檐 fēiwūyán – yuqoriga qayrilgan karniz (tom bo‘g‘oti), 曲线屋顶

qūxiànwūdǐng – dumaloq, yumaloq tom, 屋脊 wūjǐ – tom bo‘g‘oti, 正脊 zhèngjǐ

– to‘g‘ri joylashgan tom bo‘g‘oti, 垂脊 chuǐjǐ – pastga qaragan tom bo‘g‘oti, 平

顶 píngdǐng – shift, tekis tom, 单翼门 dānyìmén – prujinali eshik, 太平门

tàipíngmén – ehtiyotdagi (zapasdagi) eshik, 门槛 ménkān – uy ostonasi, 拱门


gǒngmén – arka, darboza.

Olib borilgan tahlillar natijasida xitoy tilida qurilish va me’morchilik

atamalari tematik guruhlarga ajratilib, ularning semantikasidagi o'zgarishlar hozirda qay holatdaligi aniqlandi. Tahlil natijasida me'morchilikka oid qadimgi atamalarning aksariyati hozirgi zamon xitoy tilidagi o'rnini yoqotgan, me'morchilikda qo'llanish doirasini hamda ma'nosi toraygan degan xulosaga kelindi.

II bob bo' yicha xulosa

- Ishimizning ushbu bobi yuzasidan xulosa qilishimiz mumkinki, xitoy me'morchilik yodgorliklarining paydo bo'lishi bilan, shu sohaga oid atamalar ham paydo bo'la boshlagan, bu Xitoyning tarixan rivojlanishi bilan bog'liqdir, ushbu soha atamalari Shang sulolasi(商代) (miloddan avvalgi 1600 – 1046yy.) davridan boshlab vujudga kela boshlagan, Tang (唐代) (milodiy 618 – 907 yy.), Sun (宋代) (milodiy 960 – 1279 yy.), Qing (清代) (milodiy 1616 – 1911 yy.) sulolalari davrida keng qo'llanilgan va ularga mos ekvivalentlari paydo bo'la boshlagan, hozirgi kunda ham ma'lum darajada o'z ishlatilish doirasini yoqotmagan.
- Xitoy tilidagi qurilish va me'morchilik atamalari ekstralingvistik omilga ko'ra 3 guruhga bo'lindi. Ushbu katta guruhlar o'z ichida yana kichik guruhlarga bo'linib ketadi.
- Tadqiqot ish doirasiga kiritilgan atamalar asl lingvistik omilga ko'ra, hozirgi zamon xitoy tilidagi mavqeiga, ya'ni, ma'nosi o'zgargan va o'zgarmaganligiga asoslangan holda yana boshqa tematik guruhlarga ajratildi. Bunda: ma'no torayish holati 47 ta (50.76%), ma'no kengayish 2ta (2.16%), ma'no ko'payish 8ta (8.64%), ma'no umuman o'zgarganlik holati 6 ta (6.48%) atamada kuzatildi, ma'nosi o'zgarmay qadimda qanday bo'lsa, shundayligicha qolgan atamalar 45ta (48.6%) ni tashkil etdi.



III BOB. XITOIY TILIDAGI QURILISH VA ME'MORCHILIK ATAMALARINING MORFOLOGIK TAHLILI

